



Hazrat Alisher Navoiy “Podshoh odil va haq niyatli bo'lsa, mamlakat obod bo'ladi, gullab-yashnaydi”, deb yozadi. Yana qadimgi hikmatlarda naql qilinadiki, “Yurtboshining qadami yetgan joyga Tangrining rahmati yog'iladi”. Bu so'zlarning hayotiy haqiqatini Qoraqalpog'iston misolida ko'rib turibmiz. So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning g'arbiy sarhadlarimizga qilayotgan har bir tashrifi biz uchun qator yangilik va imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Tashrif doirasida bo'lgan xalq bilan muloqot odamlar kayfiyatini ijobiy tarafa o'zgartirayotgan bo'lsa, mas'ullar bilan o'tkazilgan yig'ilishlar xayrli tadbirlarga yo'l ochmoqda.

YURTDOSHIM, OROLGA BIR NIHOL QADA...

Tuz va qumlari Alyaska muzliklarigacha uchib borayotgan Orol muammosi uzoq vaqtdan beri yangicha yondashuvdagi yechim kutib yotgan edi. Prezidentimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72- va 75-sessiyalarida Orol dengizi inqirozi chegara bilmaydigan global ekologik muammolardan biri ekanligini ta'kidlab, dunyo hamjamiyatini ogohlikka chaqirdi. Ana shunday taklif va tashabbuslar natijasi o'laroq, 2018-yilning 27-noyabr kuni Nyu-York shahridagi BMT qarorgohida muhim tarixiy voqelik yuz berdi. BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha

ko'psheeriklik Trast fondi tashkil etildi.

Xalqaro tashkilotlar va xoriyiy davlatlarning e'tibori hamda yordami yaxshi natija bermoqda. Lekin asosiy ish mamlakat ichkarisida amalga oshirildi. Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar barpo etish tashabbusining ilgari surilgani inson va iqlim foydasi uchun najot kemasi bo'ldi, desak adashmaymiz. Ezgu tashabbus faqat mas'ul idoralar tomonidan amalga oshirilmadi. Unga hissa qo'shishni istagan turli soha vakillari, xususan, yoshlar ko'ngilli ravishda Mo'ynoqqa oqib kela boshladi. Natijada, 1 ming 459 tonna saksovu, 73 tonna qoraburoq urug'i yig'ilib, Orolqumga bittalab qadab chiqildi.

Uchoq bilan 326,2 ming gektar, boshqa texnikalar yordamida 119,4 ming gektar va qo'l mehnati

bilan 15,3 ming gektar yer ko'kal-mzorlashtirildi. Orol dengizi tubida chuqur burg'ulash ishlari olib borildi. Har bir arteziyan qudug'idan suv otilib chiqqan sayin aholining quvonchi ham buloqdek to'lib-toshaverdi.

Olmon shoiri Gyote “Umid bilan suqilgan tayoq, bir kun berar meva-yu yaproq”, deb yozgandi. Dastlabki yilning o'zida saksovullar bo'y ko'rsatib, uning bag'riga ko'pdan beri ko'rinmay ketgan noyob hayvonlar va qushlar qayta boshladi. Dengiz atrofiga o'sadigan o'simliklar qayta ko'kardi.

Agar “Yashil makon” umum-milliy harakatining xaritasi tuzilsa, Orolqumdan tortib olinib ko'kal-mzorlashtirilgan maydonning o'zi bir dengiz bo'lib yastanib yotganini ko'rishimiz mumkin.

(Davomi 2-sahifada).

MILLAT FIDOYILARI

HUQUQSIZ

HUQUQSHUNOS QISMATI

Muhammadjon Mo'minov 1903-yil Namangan shahrida tug'ilgan. Dastlab eski maktabda, so'ng gimnaziyada o'qigan. 1917-1920-yillarda mustaqil ta'lim olib, yoshlar tashkilotiga ishga kiradi.

O'tgan asrning 20-yillarida o'lkamizda milliy ozodlik harakati avj olgan edi. Bolsheviklar xalq qarshiligini tezroq bostirish hamda e'tiborni chalg'itish maqsadida obro'-e'tiborli ulamo, el ixlos qo'ygan yo'lbo'shchilarni birin-ketin xufiyona qatl etib, aybni o'zlari uchun noqulay bo'lgan, xalq orasida nufuzi baland millatparvar shaxslarga to'nkar, shu tariqa bir o'q bilan ikki quyonni urmoqchi bo'lardi. O'z davrining ilg'or fikrli diniy rahnamolaridan biri hisoblangan Yahyoxon To'ra ana shunday fitna qurboniga aylanadi. Suiqasdni amalga oshirgan bosqinchilar barcha aybni mahalliy yoshlar tashkilotiga ag'daradi. Tabiiyki, jazavaga tushgan muridlarning

g'azabi aybsiz aybdor yoshlar yetakchilariga qaratiladi. Oqibatda Muhammadjon 1921-yil sentyabrda mutaassiblar ta'qibidan qochib, Qo'qon shahriga ketishga majbur bo'ladi va ishchi fakultetiga o'qishga kiradi. Oradan bir yil o'tgach, fakultet talabalari Toshkent shahridagi O'rta Osiyo davlat universitetiga safarbar etiladi. Uquvi va layoqati bilan yaqqol ajrab turgan Muhammadjon ishchi fakultetining oxirgi kursiga qabul qilinib, 1923-yilda uni tamomlaydi.

Bu paytga kelib jadidlarning “Ko'mak” tashkiloti saralangan yigit-qizlarni Germaniya, Rossiya, Ozarbayjondagi oliygo'hlarga yo'llay boshlagan edi. Muhammad-jonga ham omda kulib boqib, u Moskva davlat universitetining huquqshunoslik fakultetiga kiradi. U yerda Akmal Ikromov, Botu kabi ko'zga ko'ringan yoshlar bilan hamsaboq bo'ladi.

(Davomi 7-sahifada).

NUQTAYI NAZAR

XATARLI XURUJLAR

UNING OLDINI OLISH UCHUN NIMA QILMOQ KERAK?



MASALA QANCHALIK JIDDIY?

Xolis e'tirof etish lozimki, bugunga kelib geosiyosatda din omili va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish borasida qo'shtirnoq ichida ilgariilab ketgan noxolis kuchlar faolligi kundan kunga ko'proq kuzatilmoqda. Jamiyatlarni radikallashtirishda axborot omili, xususan, ijtimoiy tarmoqlar o'ta samarali rol o'ynayotgani esa sog'lom fikrli har qanday kishini tashvishlantiradi.

Bu hodisaning asosiy jihatlardan quyidagilarni alohida aytib o'tish lozim. Ancha yillardan beri din g'oyaviy-

mafkuraviy ta'sir vositasi sifatida ayrim geosiyosiy kuchlar tomonidan muayyan hududlarda o'z ta'sirini kuchaytirish yoki boshqaruvni beqarorlashtirish maqsadida qo'llanmoqda.

Bu jarayonda mazhablar va mazhablararo ziddiyatlardan o'ta samarali foydalanish holatlari ham kuzatiladi. Jumladan, sunniy va shia mazhablari o'rtasidagi ziddiyatlar ayrim davlatlarning geosiyosiy manfaatlarini ilgari surishda qo'l keladi. Qolaversa, sunniy mazhabi doirasida shakllangan mazhablar orasida ziddiyatlar va bahs-munozaralarni keltirib chiqarishdan bevosita manfaatdor bo'lgan kuchlar ham yo'q emas.

(Davomi 3-sahifada).

VATAN MANZUMASI

Usmon-AZIM

XX ASRNING 20-YILLARINDA CHO'L PON ILA YOZG'ONIM SHE'R

O'zing yersan,
O'zing osmon.
O'zing she'rsan –
Yig'i yozg'on.
Sog'inching olamni bosg'on...
Yuragim aqlidin ozg'on.
O'zim – tuproq,
So'zim – osmon...

Nechun bormen – yo'qolmasmen?
Yoshlarimni to'kolmasmen,
O'zimni yoqqonim yoqqon –
Hasratingni yoqqolmasmen.
Ishqingda yong'onim – doston!

Yov-la suhbat qurmoq yo'qdir,
Ozod-ozod yurmoq yo'qdir.
Vatan, agar sen bo'lmasong,
Bul dunyoda turmoq yo'qdir.
Bul so'zim – chin,
Dunyo – yolg'on!



MULOHAZA

OLIMLAR TARJIMONLARGA TIRGAK BO'LSIN

O'zbek tarjimachiligida asosiy e'tibor badiiy asarlarni chet tillardan ona tilimizga o'girishga qaratilgan. Bu borada bizda asrlar bo'yi yig'ilgan boy meros va tajriba bor. Shunga qaramay, ayrim tarjimalarda hamon xato va kamchiliklar uchrayib turibdi. “Yo'qdan ko'ra bor-ku”, qabilida bunday holatlardan ko'z yumadigan vaqtlar o'tdi. Bugungi o'quvchi

jahon adabiyotini aslyatda o'qiydigan salohiyatga ega. Demak, ularda taqqoslash imkoniyati tug'ilmoqda. Mana shu hol tarjimonlardan yanada sergak va bilimli bo'lishni, mehnatdan qochmaslikni talab qiladi. Quyida ayrim tarjima ishlariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Zora, yosh mutarjimlarga foydasi tegsa.

(Davomi 6-sahifada).

KELAJAK OVOZI

KUCH – ILMDA

Gulasal Bo'tayeva – “Kelajak bunyodkori” medali sohibasi, Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetining 2-bosqich talabasi:
– Joriy yilning 30-iyunida hayotimdagi eng unutilmas hodisa ro'y berdi – davlatimiz rahbari qo'llaridan “Kelajak bunyodkori” medalini oldim. Nazarimda, bu mening shaxsiy yutug'im bo'lsa-da, u minglab yoshlarga ilhom ulashdi. Chunki biz, ming shukurlar bo'lsinkim, yoshlarga beqiyos imkoniyatlar yaratilgan shunday tinch yurtda yashayotgan avlodmiz. Bugun dunyoda turli urushlar, nizolar va tahdidlar avj olayotgan paytda, bizga ko'proq harakat qilish, zamonaviy ilm-fandan yaxshi xabardor bo'lish, olg'a intilish va yurtimiz rivojiga munosib hissa qo'shish vazifasi yuklatilgan.



(Davomi 8-sahifada).



Boshlanishi 1-sahifada.

BIR KELIB-KETING MO'YNOG'IMIZGA!

Tarixan qisqa vaqtda Davlatimiz rahbarining o'ndan ortiq tashrifiga guvoh bo'ldik. Biz uchun bir necha o'nlab farmonlar imzolaganini, yuzlab qarorlar qabul qilganini ko'rdik. Ayniqsa, Mo'ynoq tumanini siyosiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari aks etgan ko'rsatmalari qaqragan tuproqqa ham, tashna dillarga ham obi hayot kabi ta'sir qildi.

Bir vaqtlar mintaqada baliqchilik lokomotivi bo'lgan Mo'ynoqning fayzi Orol suvlari bilan cheklangan edi. Iqtisodiy tanglik odamlarni tug'ilib-o'sgan uylarini tark etishga majbur qila boshlagandi...

Shavkat Miromonovichning "Madaniyat Mo'ynoqdan boshlanadi!" degan shiori mayoq bo'lib porlay boshladi. Uning yog'dusi ko'p o'tmay keng va ravon ko'chalar, ijtimoiy soha obyektlari, baland-baland turar joylar, korxonalarning ko'rkam binolari uzra tarala boshladi. Qisqa vaqt ichida tuman markaziga chiroy kirib, rosmansha shaharga aylandi. 250 o'rinni madaniyat saroyi, 800 o'rinni amfiteatr, muzeylar, shoirlar xiyoboni, hunarmandlar alleyasi, Ajiniyoz bog'i, bolalar dam olishi uchun oromgohlar tashkil etildi. Yangi ish o'rirlari ochildi.

Mo'ynoq turistlik hududga aylandi. Chet ellardan sayyohlar kela boshladi. Qurilish, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirildi. Ayniqsa, baliq mahsulotlaridan tayyorlanadigan 99 xil taom festivali mahoratli oshpazlarni kashf qiladigan katta maydonga aylandi.

"Qorajar" qishlog'ining tarixida birinchi marta tosh yotqizilgan yo'l qurildi. "Tuyamo'yin" suv omboridan "Qizil jar", Hakim ota, Bo'zatov, Amudaryo, Qipchoqdaryo, Uchsoy, Aliy ovul, Do'stik ovul, Talliq ovul, To'qman ota ovullariga toza ichimlik suvi yetib bordi. Keng tabiat qo'ynida qad rostlagan "Aq keme" bolalar oromgohi o'smirlar dam oladigan huzurbaxsh maskanga aylandi.

Eng muhimi, "Madaniyat Mo'ynoqdan boshlanadi!" mayog'ining yog'dusi odamlar qalbini nurafshon qildi. Bugun biz Mo'ynoqqa yangilana-yotgan emas, to'laonli yangi sifatini ishlatamiz.

BO'ZATOV OVOZI

Tikilgan o'tov – oydin kelajak

Ketadigan bo'ldik yana yo'l solib.

Omon bo'l, xayr endi, Bo'zatov.

– deya "oh" chekkan Ajiniyoz shoirming dardli nolasi faqat kitob sahifalarida qolib ketganiga ko'p bo'ldi.

Bo'zatov butun boshli Boltiqbo'yi davlatlari sig'adigan hududga ega. Tuman qayta tashkil



EL G'AMXO'RI

etilgach, ellikka yaqin muassasa va korxonalar ish boshlab, ko'plab mutaxassislar ish o'rinariga ega bo'ldi. 135 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi, qishloq xo'jaligi va chorvachilik rivojlandi.

Hozir bu yerda o'ttizga yaqin maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. "Oq Eden" qishlog'ida qurilayotgan 200 o'rinni sanatoriya binosi bitsa, Bo'zatovda yana 150 ish o'rni ochildi.

2019-yil Bo'zatov tumani tashkil etilgach, Prezidentimiz tashabbusi bilan yosh iste'dod egalari mana shu go'zal maskanga kelib, tumanning obro'yini, dovrug'ini butun O'zbekistonga tanitish uchun "Bo'zatov FEST" Yoshlar ovozi tanlovini yuksak saviyada o'tkazishdi. Bu tanlov an'anaviy san'at festivaliga aylangani mintaqa yoshlariga qagnusqanot baxsh etayotgani bor gap.

BU YO'LLAR KO'P YANGI YO'LLARDIR!

Avtomobil yo'llari – iqtisodiyotning "qon tomiri". So'nggi sakkiz yilda sohaga 58 trillion so'm ajratilib, 2 ming kilometr yo'l qurildi, 100 ming kilometri ta'mirlandi. Loyiha hujjatlarining namuna standartlaridan voz kechilib, har bir hududning geologik va ekologik xususiyatidan kelib chiqish uslubiga o'tildi. 1 ming 700 ta maxsus texnika xarid qilinish, yo'l xo'jaligi korxonalarining ta'minot darajasi oshirildi. Yangi turdagi asfalt-beton, sement-beton qoplamalar joriy etildi. Ularning holati 42 turdagi ko'rsatkich bo'yicha tekshirib boriladi.

Jahon bankingin grant mablag'lari hisobidan olib kelingan texnikalar yo'lning fizik xususiyatlarini baholash va yerosti kommunikatsiya tarmoqlari holatini qoplamani buzmaganda holda tekshirish imkonini beradi. Har mavsumda yo'llarning ikki chetiga har xil turdagi daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Shuningdek, yashil makon doirasida ishlarni

yanada jadallashtirish uchun yo'llar bo'yidagi yer maydonlarini ijaraga berish joriy etildi.

2025-yil davomida Qoraqalpog'iston Respublikasida avtomobil yo'llarini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bo'yicha keng ko'lami dastur belgilangan bo'lib, rejaga ko'ra, joriy yilda jami 782,1 kilometr avtomobil yo'llarini ta'mirlash uchun 577,6 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilishi belgilangan. Bu ishlar natijasida transport aloqalari yaxshilanishi, harakat xavfsizligi oshishi va aholi uchun qulay sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilgan. Amalga oshirilayotgan ishlar esa Prezidentimiz tomonidan belgilangan yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish borasidagi qat'iy siyosat Qoraqalpog'istonda ham samarali davom etayotganini ko'rsatmoqda.

"YASHIL ENERGETIKA" RIVOJLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-martdagi "Respublika hududlarida mikro gidroelektr stantsiyalari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Qoraqalpog'istonda 5 ta yangi mikro gidroelektr stansiya foydalanishga topshirildi.

Xususan, Nukus tumanida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish maqsadida 3 ta mikro GES qurilib, ishga tushirildi. "Aqtarek" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Bo'zatov kanali oqimidan foydalanilgan holda quvvati 15 kVt bo'lgan mikro stansiya qurildi. Bu qurilma yiliga 85 ming kVt/soat elektr energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lib, mahallaning elektr ta'minotini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Kerder" ovul fuqarolar yig'iniga qarashli "Qizil uy" ovulidagi To'rtko'l kanalining suv resurslari asosida quvvati 30 kVt/soat bo'lgan yana 2 ta mikro GES faoliyati yo'lga qo'yildi.

KIROYI SHAHAR SHUNDAY BO'LSA...

Taxtakopir tumanining shimoli-sharqiy tomonida joylashgan Qorateran ko'li bo'yidagi "Dehqon qishloq"liklar ilgari Bo'rchi tog'ning tepasiga chiqib quyoshni hammadan oldin ko'ramiz deb maqtanadigan bo'lsa, endi "Prezident bizga shahar qurib berdi", deb huzurlanadigan bo'ldi.

Ko'l atrofi va yaqin qishloqlar ko'p yillardan buyon qarovsiz qolib, ijtimoiy obyektlar, uy-joylar, infratuzilma obyektlari yaroqsiz ahvonga kelib qolgan, ishsizlik odamlarni qiynayotgan eng katta muammolardan biriga aylangan edi. Taxtakopir markazidan ko'lgacha olib boruvchi 18 kilometr yo'lga qum-shag'al aralashmasi to'shalib, asfaltlandi. Ko'l bo'yiga 223 dona beton tayanch ustunlari o'rnatildi va suv tozalash inshooti qurildi.

Bo'rchitov tog'iga chiqish uchun uzunligi 130 metr, balandligi 80 metr, kengligi esa 3 metr, temir-betondan ishlangan 272 ta zinapoyadan iborat yo'l bunyod bo'ldi. 30 milliard so'mlik ushbu turistik maskan Qorateranga keluvchilarning mazmunli dam olishi uchun sevimli bir joyga aylandi.

"BUNDA BULBUL KITOB O'QIYDI"

Nukus shahrida Prezident maktabining ochilishi tarixiy voqea bo'ldi. O'qish STEM yo'nalishida Kembrij va mahalliy o'quv dasturi asosida qoraqalpoq va ingliz tillarida olib borilyapti.

Buning yonida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroym Yusupov nomidagi til o'rganishga ixtisoslashtirilgan maktab ham birinchilardan bo'lib iste'dodli o'g'il-qizlarni o'z bag'riga oldi. Ota-onalarining orzularidagina bo'lgan bu maktabda bugun ikki yuzga yaqin bola ta'lim-tarbiya olyapti.

Bundan tashqari, bevosita Prezidentimiz tashabbusi bilan har yili minglab yoshlar kvota asosida oliy o'quv yurtlarining talabalari bo'lish baxtiga muayassar bo'lmoqda.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali, opera va baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyati yo'lga qo'yilgani bir yon bo'ldi, Berdaq nomidagi davlat musiqali drama teatriga akademik teatr maqomining berilishi bir yon bo'ldi.

Hozirda 24 ta musiqa maktabida tajribali ustozlar iqtidorli yoshlarga saboq bermoqda.

Adabiyotda erishgan yutuqlari uchun o'nega yaqin qoraqalpoq yozuvchi-shoirilari davlat mukofotlariga loyiq ko'rildi. Yana bir tarixda ko'rilmagan voqea: "Qoraqalpoq adabiyotining durdonalari" ko'p jildligini chiqarishga ko'rsatma berildi.

Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida qo'r to'kib turgan Berdaq, Ibroym Yusupov, To'lepbergen Qayipbergenov haykallariga boqib faxr tuyamiz. Mumtoz shoir va taraqqiyparvar Ajiniyoz Qo'siboy o'g'lining 200 yilligini nishonlash haqidagi Prezident qarori e'lon qilindi. Toshkent shahrida, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida "Qoraqalpoq adabiyoti kunlari" bo'lib o'tdi. Bularning barchasi adabiyotimizga ehtiroam namunasi, mehr va hurmatning belgisi.

Ulug' shoir Berdaq bir she'rda shunday yozadi:

"El-yurtini o'ylagan

El g'amxo'ri kerak menga".

Bugun ana shunday el g'amxo'ri yurt boshida turgani bizga faxr va quvonch bag'ishlaydi. Ezgu ishlarning yakuni bo'lmaydi. Yaxshi odamlar bor ekan, yaxshi ishlar davom etaveradi.

Beknazar YERNAZAROV,
Qoraqalpog'iston Yozuvchilar
uyushmasi mas'ul kotibi

14-AVGUST – MIRKARIM OSIM TAVALLUD TOPGAN KUN

Ibrohim G'AFUROV,
O'zbekiston Qahramoni

ZULMAT ICHRA NUR

O'quvchilik yillarimda atiqli adib Mirkarim Osim asarlariga juda qiziqib qoldim. U kishi qalanga olgan Jaloliddin Manguberdi, Mashrab, Navoiy kabi buyuk tarixiy siymolarimiz obrazlari meni maftun qilib qo'ygandi. Yana bir gapni ta'kidlab o'tishim kerakki, u davrlarda tarixiy shaxslar hayotini yoritish nihoyatda qaltis ish edi: salga sen o'tmishni ideallashtirypasan, sovet mafkurasiga qarshi chiqypasan, deb juvonmarg qilib yuborishlari hech gap emas edi. Ana shunday mas'ul vazifani o'z zimmasiga olgan, qatag'on chig'irqlaridan ruhan omon chiqqan bu Alpomish adibni ko'rish, suhbat qurish biz yoshlar uchun juda katta orzu sanalardi.

O'qishni tugatib, O'zbekiston Davlat badiiy adabiyoti nashriyotida ishlay boshladim. Taqdirning tuhfasini qarangki, Mirkarim Osim domla ham shu yerda mehnat qilar ekan. Bir umr o'zim intilgan yozuvchim bilan birga ishlash baxtiga muayassar bo'lganman. Bu baxt menga Mirkarim Osim ijodi-yu shaxsiyati bilan ham yaqinroq tanishib olishga imkon



yaratdi va ustozdan juda ko'p narsa o'rgandim. Men hozirgacha Mirkarim Osim asarlarini sevib o'qiyman, xuddi birinchi marta o'qiyotganday xursand bo'lib, zavqlanib mutolaa qilaman!

Mirkarim Osim yozuvchi bo'lish bilan birga, mohir tarjimon ham edi. U Tolstoy, Gogol, Chexov, Sholoxov, Borodin va Bat kabi ulug' yozuvchilarning asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Uning tarjimalari ham xuddi o'zining qissalari kabi maroq

bilan o'qiladi, na biror g'aliz jumla, na biror noo'rin ibora uchraydi. Chet el mualliflarining asarlariga yuksak madaniyat bilan yondashishni Mirkarim Osim tarjimalaridan o'rganganman. Tom ma'noda shuni aytolamanki, men tarjimonlikka Mirkarim Osimning bu boradagi san'atiga qiziqish orqali kirib kelganman. Ustoz o'ttizinchi, qirqinchi yillarda qilgan tarjimalari hali-hanuz o'z ahamiyatini, ohorini yo'qotmagan. Ular asiyatga yaqinlik bilan ajralib turadi.

chiqqanidan so'ng, u yana ijod maydoniga qaytdi va ko'plab asarlar yaratdi.

Mirkarim Osim "O'tror", "To'maris", "Temur Malik", "Aleksandr va Spitamen" kabi asarlarida millat qahramonlarini yangi ruhda tarannum etgan.

"Mohlaroyim va Xonposhsha", "Karvon qo'ng'iroq'i", "Elchilar" kabi asarlar o'sha davrning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy fojialarini o'z ichiga oladi.

"Zulmat ichra nur" (Alisher Navoiy haqida), "Jayhun ustida bulutlar" (Beruniy haqida), "Ibn Sino qissasi", "Aljabrning tug'ilishi" (Al-Xorazmiy haqida), "Singan setor" (Mashrab haqida) kabi asarlari bilan yozuvchi xalqdan atay olis tutilgan daholar hayotiga oydinlik kiritib, ma'naviy jasorat namunasini namoyon etgan.

Mirkarim Osimning "Astrobod" nomi bilan tanilgan tarixiy qissalar turkumida Navoiy hayotini teran ifoda etuvchi "Astrobod", "Alisher Navoiy va Darveshali", "Badarga", "Navoiyning xislatlari", "Ulug'bek va Navoiy" kabi asarlar muhim o'rin tutadi.

IBRAT

Yaxshilikning qanoti bor, degan gap to'g'ri ekan. Gazetamizning 25-iyuldagi 30-sonida urganchlik tadbirkorlar – ota-bola Abdullayevlarning zamonaviy kutubxonalar va kitob do'konlari ochgani haqida maqola chop etilgan edi. Uni o'qigan samarqandlik mushtariylarimiz "Biz tomonga ham bir qarab qo'ying, opaginam, Paxtachidagi kutubxonani ko'rsangiz, bahri dilingiz ochilib, siz ham bir maqola yozib yuborasiz", deb qo'ng'iroq qilishdi.



ISHDAN ZAVQLANADIGAN DAVR KELDI

Darhaqiqat, Paxtachi tuman markazi – Ziyovuddin shaharchasida ma'rifati tadbirkor Shavkat Mirzayev tomonidan muhtasham kutubxona qurilib, foydalanishga topshirilgan ekan. Boshida ishbilarmon yurtdoshimiz jadid bobolar izidan borib, "Xalq kutubxonasi"ni tashkil etishni orzu qilgan. Yangi bino bitgach, bir muddat xususiy kutubxona va kitob do'konini sifatida faoliyat ko'rsatadi. Shu paytda tuman rahbariyati markazlashgan kutubxona uchun bino qidirayotganidan xabar topadi. U shaxsiy manfaatdan voz kechgan holda binoni tuman Axborot-kutubxona markazi tasarrufiga topshiradi.

Zamonaviy uslubda qad rostlagan binoga kirar ekansiz, kutubxonachilarning mamnun behrisi, samimiy muomalasi ko'nglingizni yoritadi. Ko'zingiz chehtiyor o'n uch qator qilib terilgan kitob javonlariga tushadi. Ular atrofida kitobxonlarga qulaylik yaratish maqsadida qo'yilgan yumshoq mebellar, so'nggi rumumdagi kompyuter jamlanmalar, stol-stullarni ko'rib, poytaxtdagi Milliy kutubxonaga kirib qoldimmi, deb o'ylaysiz. Bu yerda 20 mingdan ortiq o'zbek tilidagi kitob fondi borligini eshitgan har qanday kitobsevar "zamonimdan aylanay" deb yuborishi aniq.

– 1983-yildan buyon shu sohada ishlayman, – deydi Paxtachi tumani AKM direktori Dilorom O'tkirova. – O'tgan yillar mobaynida kutubxonalar og'ir sharoitda faoliyat yuritdi. Ularni turli tashkilotlarga qo'shib-ayirib, sarson etishdi. Binolar o'zgarishi, tez-tez ko'chishi kitoblar sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Eng keraksiz soha bo'lib qolgandi-da kutubxonachilik. O'n mingdan ziyod kitob fondimiz ko'cha-ko'chda yo'q bo'lib ketdi. Eslasam, hali-hamon ichim achishadi. Zax, qorong'i xonalarda qavat-qavat issiq kiyimlar kiyib ishlaganmiz. Kitob o'qiydiganlar juda kam edi. Ba'zan biror kitobxon kelarmikan, degan umidda kun bo'yi eshik qarardik. Shundayam fidoyi kutubxonachilarmiz boshqa ishga o'tib ketmadi. Suv kelsa simirdi, tosh kelsa kemirdi. Keyin barchasi tubdan o'zgarib ketdi. Kutubxonalariga yangi

nafas kirib keldi. Maoshlar oshirildi, yangi kitoblar taqdim etildi.

Tuman mas'ullari bilan markazlashgan kutubxona uchun joy izlab yurgan kunlarimizda Shavkat Mirzayev mushkulimizni oson qildi. 2024-yilning aprelida 4345 dona kitob bilan yangi binoga ko'chdi. Endi ishlamasak uyat bo'ladi. Hozir nafaqat o'quv zali, tadbirlar uchun ham alohida xonamiz, stol-stulimiz bor. Katta yig'inlarda ham hech kim tik turib qolmaydi.

Kutubxonadagi axborot-kompyuter texnologiyalari bo'limi tashkil etilgan bo'lib, bu yerdagi barcha kitob, gazeta va jurnallar, o'quv qo'llanmalar shu bo'lim orqali elektron dasturga kiritiladi, kitoblar annotatsiyasi tuziladi. Shuningdek, badiiy va ilmiy adabiyotlar kutubxona saytiga nomma-nom joylanadi.

O'n bir nafar xodimning qo'lli-qo'lga tegmaydi bugun. Kitoblar soni oshgani sayin kitobxonalar ham ko'paygan. Eshik tushlik paytida ham berkitilmaydi.

– Kitob javonlari oralab ishlash zavq beradigan zamonlar keldi, – deydi Dilorom opa. – Tumanimizda tug'ilib, ijod yo'lidan ketgan shoir va yozuvchilar esa yangi nashr etilgan kitoblarining taqdimotlarini shu yerdan boshlashadi. Qiziq bir gap: ilgari odamlar olgan kitobini, "bolamni qo'lga tushib qolibdi", deb chizib tashlangan, yirtilgan holatda qaytarib kelaverardi. Hozir unaga gap yo'q. Kutubxonaning salobatiga qarab kitobxonlarning munosabati ham o'zgararkan. Bunga uzoq yillik faoliyatimda amin bo'ldim.

Kutubxonadagi sakkiz mingdan oshiq jahon adabiyoti durdonalarining tanlab keltirilgani markaziy kutubxona rahbarining adabiy didi balandligini ko'rsatib turibdi. U ish jarayonida kitobxonlarga ham sara asarlar o'qishni tavsiya qiladi, mijozlarining ijodiy tafakkurini rivojlantiradigan kitoblar bilan ta'minlaydi. Zero, kutubxonachilikning asl san'ati va mohiyati ham ana shunda.

Muhayyo RUSTAMOVA



Boshlanishi 1-sahifada.

Ayrim Yaqin Sharq mamlakatlarida yoki alohida mintaqalarda siyosiy beqarorlik keltirib chiqargan yoxud chiqarishga urinayotgan ba'zi radikal guruhlar o'z harakatlarini "ilohiy missiya" sifatida talqin qilib, siyosiy maqsadlarini "diniy manfaatlarini himoyalash" deb izohlamogda. Aynan shu o'rinda axborot omilining jamiyatni radikallashtirishdagi roli yaqqol ko'zga tashlanadi. Mass-media va internet orqali diniy radikal guruhlar o'z g'oyalari keng ommaga yetkazish uchun qilayotgan harakati ekspertlarni shunday xulosaga undaydi.

Bu jarayonda feyk yangiliklar, montaj qilingan videolar, manipulyatsiya singdirilgan media mahsulotlar va noxolis talqindagi o'ylar hamda hadislar orqali odamlarning his-tuyg'ulariga ta'sir etiladi.

"Mazlumlik" obrazi yaratilib, yoshlarni yolg'on "jihod"ga jalb qilish osonlashadi. Aso-san yoshlar auditoriyasini qamragan tarmoqli kommunikatsiya manbalari – Telegram, YouTube, TikTok, Discord, Dark Web singari platformalar jamiyatlarni radikallashtirish loyihalarini amalga oshirishda qo'l keladi.

Shu o'rinda axborotning psixologik ta'siri-ni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Inson his-tuyg'ulariga kuchli ta'sir o'tkazish maqsadida yaratilgan tasvirlar, videolar yoki illyustratsiyalar, dramatik filmlar, "jannati shahidlar" haqidagi kinolar, seriallar, radikal va ekstremistik mazmundagi videoroliklar ko'zlangan g'arazli maqsadga yetishda ulkan rol o'ynaydi.

Noxolis diniy ta'limotni qabul qilib olayotgan kimsalar manipulyatsiyaga asoslangan fikrlarga ishonishga moyil bo'lganlari uchun axborot ko'magida radikallashtirish jarayonida dunyoviy ilmi, diniy tasavvurlari g'arib bo'lgan birinchi qatlam sifatida qurbonga aylanadi.

Radikal guruhlar esa bundan, albatta, ustomonlik bilan foydalanishadi. Qurbonlar ongida avval axborot xuruji orqali ziddiyatli savollarni tug'diradi. So'ng o'zi yashayotgan jamiyat va mavjud tuzimdan bunday savollariga go'yoki javob ololmagan manqurtlar ongiga osonlik bilan tajovuzkor g'oyalarni singdiradi.

Shu o'rinda alohida e'tibor qaratish va albatta inobatga olish lozim bo'lgan bir jihat bor. Dunyoning qaysidir burchagida radikallashuv omili kuzatilayotgan bo'lsa, bilingki, unga ulkan turktni, shubhasiz, geosiyosiy maqsadlar bermogda. Mavjud tuzumga qarshi harakat qiluvchi guruhlar vositasida diniy guruhlarni moliyalashtiradigan yoki ularni qo'llab-quvvatlaydigan davlatlar ham borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Aynan shu jarayonga axborot va ommaviy axborot vositalari geosiyosiy ta'sir quroli sifatida xizmat qilib, fuqarolik urushi, qochqinlar muammosi va ichki beqarorliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, geosiyosiy manfaatlar doirasidagi hududiy ta'sirni kengaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalarida muayyan bir hududni, diniy ozchilik yoki etnik guruhni "qutqarish" borasidagi da'volar iddao qiliniib, boshqa davlatning ichki ishlariga aralashish ham kuzatiladi.

Shu tarzda din omili radikallashuv jara-yonida simbolik va emotsional ta'sir vositasiga, axborot omili esa geosiyosatning amaliy quroliga aylantiriladi. Bu ikki omil birgalikda qo'llanilganda inson ongiga ta'sir qilish, yoshlar ongiga radikal g'oyalarni singdirish, ichki siyosiy barqarorlik izdan chiqishi kabi hodisalar sodir bo'ladi. Bu holatni ayrim Yaqin Sharq, Afrika, Osiyo va Okeaniya mamlakatlari misolida ham kuzatish mumkin.

MUAMMONING YECHIMI BORASIDA EKSPERTLAR NIMA DEYDI?

Doktor Reham Salama, Misr Arab Respublikasidagi ekstremizmga qarshi kurash "Al-Azhar" observatoriyasi direktori:

– Bugun dunyoda ayrim jamiyatlar, xususan, yoshlarning radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolishida axborot omili katta o'rin tutmogda. Shu bois biz dastlab ilmiy markaz sifatida tashkil etilgan rasadxonamizning funksional vazifasini ma'lum ma'noda o'zgartirib, ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda faollashishni maqsad qildik.

Observatoriyaning bosh maqsadi esa Al-Azhar majmuasining insonparvarlik missiyasi va xalqaro hamjamiyatdagi ijtimoiy roli doirasida barcha ko'rinishdagi terrorizm va



XATARLI XURUJLAR

UNING OLDINI OLISH UCHUN NIMA QILMOQ KERAK?

ekstremizm g'oyalari hamda mafkuralarni kuzatib borish, ularga axborot vositalari



ko'magida qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Ayni paytda biz dunyoning barcha joylarida yashovchi musulmonlarning hayotini yoritib borish, Islom dini haqidagi haqiqatni to'g'ri yetkazish va dinimizda aks etgan insoniy qadriyatlarni ochib berish maqsadida o'n uch tilda media mahsulotlar va materiallar tayyorlayapmiz.

Tadqiqotchilarimiz turli terroristik va ekstremistik tashkilotlar tomonidan e'lon qilinayotgan materiallar, Islom dini va musulmonlarning hayotiga oid barcha maqolalar, fikrlar, jarayonlar, amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni diqqat bilan kuzatib boradi. Shu bilan birga, terrorizm va ekstremizm g'oyalarga qarshi tayyorlangan materiallarni veb-saytlarda, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda, ekstremizm va terrorizmga oid tadqiqot markazlarida, telekanallarda, gazeta va jurnallarda e'lon qilib borish yo'lga qo'yilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa ekstremistlar tomonidan tarqatilgan noto'g'ri g'oyalarga qarshi kurashish, bag'rikenglikni targ'ib qilish, mo'tadil Islom dinining haqiqiy qiyofasini ko'rsatib berishdan iborat. Markazimizda 18 ta bo'lim va 110 nafar xodim aynan shu maqsad yo'lida faoliyat yuritmogda.

Doktor Muhammad Hassan, Misr Arab Respublikasidagi "Salam" ekstremizmini o'rganish va islomofobiya qarshi kurashish markazi direktori:

– Chindan ham radikal, ekstremistik va terroristik g'oyalarga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos, ayniqsa, onlayn saboqlar, diniy mazmundagi ma'ruzalar va da'vatlar keng ommalashib ketgan bugungi kunda. Bizning markazimizda bu borada jadal ishlar boshlanganiga ancha bo'ldi. Biz buzg'unchi g'oyalarni targ'ib etayotgan kimsalarga javob qaytarishda ularning shaxsiga urg'u bermaymiz, chunki bu hol uning yanada ommalashib ketishiga xizmat qilishi mumkin. Uni obro'sizlantirishga qaratilgan xatti-harakatlar ham aks ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozircha bu borada o'zini oqlayotgan yechim shuki, jamiyatlarni radikallashtirishda axborot

omilining yaqqol ustunlikka ega ekanligini tan olgan holda, mavzuga oid sog'lom axborotni tarqatish va shunday axborotni ishlab chiquvchi markazlar faoliyatini samarali tashkil etish lozim. Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib tashkil etilgan markazimizda yuzdan ortiq kishi faoliyat ko'rsatmogda.

Biz internetdagi barcha platformalar, xususan, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat olib borayotgan radikal voizlar hamda ekstremistik va terroristik g'oyalarni targ'ib etayotgan



shaxslarning chiqishlarini muntazam kuza-tuvga olganmiz. Jamiyatimizda ziddiyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan diniy mazmundagi har qanday g'oyaga, fatvo va boshqa da'vat-larga tezkorlik bilan javob qaytaramiz.

Mamlakatdagi ommaviy axborot vositalarida uchrayotgan ekstremistik chaqiriqlarga oid kalit so'zlarni aniqlab, bunday kontentlarning keng tarqalishidan oldin preventiv tarzda o'chirilishini, shaxsga urg'u bermagan holda mavzu yuzasidan aniq shar'iy va qonuniy nuqtayi nazarlarni bayon etuvchi media mahsulotlarni ishlab chiqishni yo'lga qo'yganmiz.

Doktor Toha Najim, Misr Arab Respublikasidagi Iskandariya universitetining ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i:

– Bugun ma'lum ma'noda voqelik tezlashib ketdi. Jamiyatda sodir bo'layotgan biror-bir hodisani ilmiy jihatdan puxta tahlil qilib, u haqda ilmiy tadqiqotlar o'tkazib, salmoqli ilmiy kitob yozib, uni kimgadir o'qitishga jazm qilgan odamlar biroz kechikib ham qolyapti...



Qolaversa, hozirgi yoshlarning bunday kitoblarni o'qishga sabri yetarmikan?!

Juda katta qismi ijtimoiy tarmoqlarning o'ta faol foydalanuvchilari bo'lgan bugungi avlod ongiga radikal g'oyalar aynan shu "tuynuk"lar orqali yo'l topyapti. Demak, ijtimoiy tarmoqlarda sog'lom g'oyalarni targ'ib etish va radikal g'oyalarga asosli raddiyalarni ommalashtirish ustida ishlash lozim. Bu borada kino san'atining, uy bekalarning sevimli ermagi bo'lgan seriallarning, internet platformalarida keng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarning va shu tarmoqlarda "xaridorgir" hisoblangan turli janrlardagi videoroliklarning o'rini inobatga olish kerak.

Bu mulohazalar "Ziyo" media markazi

vakillarining Misr Arab Respublikasi va Turkiyaga ijodiy safari mobaynida tinglandi. Misrdagi "Dorul ifto" Fatvo uyushmasi, Iskandariya kutubxonasi, Turkiyadagi Islom tarixi, san'ati va madaniyatini tadqiq etish IRCICA tashkilotining yana bir qancha tajribali ekspertlari ham shunga o'xshash mulohazalarni bildirib o'tishdi.

RADIKAL AXBOROT XURUJIGA QARSHI KURASHDA NIMALARGA E'TIBOR BERISH ZARUR?

Avvalo, zararli axborotlarning preventiv o'chirilishini yo'lga qo'yish lozim. Bu senzura emas, balki milliy xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqqan holda muqarrar g'oyaviy-mafkuraviy xavfdan aholi, xususan, yoshlarni himoyalash usulidir. Darvoqe, "Salam" ekstremizmini o'rganish va islomofobiya qarshi kurashish markazi direktori doktor Muhammad Hassan ham o'z intervyusida bu borada qisman to'xtalib o'tgan edi.

Shu o'rinda preventiv tarzda o'chirilish nima ekanligini izohlash lozim. "Preventiv" atamasi lotincha "praevnire" so'zidan olingan bo'lib, "oldini olish" degan ma'noni anglatadi. Preventiv tarzda o'chirilish esa, ekstremizm, radikalizm yoki zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentni topib, uni ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishidan oldin yo'q qilish, demakdir.

Ko'pchilikda "bu texnik jihatdan qanday ishlaydi", degan savol tug'ilishi tabiiy. Albatta, ushbu dastur internet algoritmilariga xos tarzda ishlaydi. Unda "Kalit so'zlar" jamlanmasi mavjud. Markaz va hamkorlar tomonidan shakllantirilgan ma'lum bir kalit so'zlar va ifodalar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Masalan, "jihod" so'zi va uning sinonimlarini, "kofirlarga qarshi kurashish", "shahidlik", "bomba tayyorlash" va hokazolarni.

Bundan tashqari, internetda xavotirga sabab bo'layotgan kontentlar muntazam kuzatib boriladi (web crawling). Aniqlangan kalit so'zlar asosida veb-saytlar, bloglar, videolar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar ham avtomatik ravishda o'rganiladi. Zo'ravonlikka da'vat, yolg'on fatvolar, yoshlarni radikallashtirishga urinishlar va shunga o'xshash holatlar aniqlansa, ushbu kontent platformaga yuboriladi va tarqalishidan avval o'chiriladi.

E'tiborga loyiq jihati shundaki, bu jarayon kontent keng ommaga yetmasidan avval sanoqli lahzalar ichida amalga oshadi, ya'ni odamlar uni ko'rib ulgurmasidan avval foydalanuvchining profili bloklanishi, videosi o'chirilishi yoki posti yo'q qilinishi mumkin.

Bu esa yoshlar va keng jamoatchilikning radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolmasligida, terroristik harakatlarini rejalashtirishning oldini olishda va internet axborot tarmog'ining ekstremistlar uchun yollash vositasiga aylanishiga yo'l qo'ymaslikda samarali chora bo'lishi mumkin.

Qolaversa, axborot-tahlil va media markazlar faoliyatini takomillashtirish lozim. Chunki har qanday dunyoviy davlat oldida diniy qarashlarga daxl qilmaslik, hech bir dinni boshqa dindan ustun qo'ymaslik, dinlararo va mazhablararo bag'rikenglik tamoyillarini, millatlar o'rtasidagi totuvlik muhitini mustahkamlash, diniy aqidalar va tushunchalarning o'ta radikal shaklga kirishiga hamda jamiyatning radikallashtirish ketishiga yo'l qo'ymaslik vazifalari ko'ndalang turadi.

Bu vazifalar puxta ilmiy salohiyat hamda shu salohiyatga tayangan axborotni keng yoyish, buzg'unchi va ekstremistik g'oyalarga berilajak malakali ilmiy-tahliliy javoblarni aholiga o'z vaqtida yetkazish orqali amalga oshiriladi. Axborot omili aynan shu o'rinda jiddiy rol o'ynaydi.

Dunyoda shunday vazifalarni bajarayotgan bir talay markazlar bor. Bu o'rinda Gaagada joylashgan International Centre for Counter-Terrorism (ICCT) markazini, Londondagi Institute for Strategic Dialogue (ISD) instituti, Global Research Network on Terrorism and Technology (RUSI) markazi, Merilend universitetining ta'lim-tadqiqot markazi hisoblangan National Consortium for the Study of Terrorism and Responses to Terrorism (START) markazi, BAA poytaxti Abu-Dabi shahridagi Hedayah – International Center of Excellence for Countering Violent Extremism markazi, Parijdagi European Union Institute for Security Studies (EUISS) instituti, Chexiyadagi Centre Against Terrorism and Hybrid Threats markazi, Singapurdagi S. Rajaratnam School of International Studies (RSIS) xavfsizlik va strategik tadqiqot instituti, AQShning Honolulu shahridagi, Osiyo-Tinch okeani regionini bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi Asia-Pacific Center for Security Studies (DKI APCSS) markazi, Bangladesh Institute of Peace & Security Studies (BIPSS) markazi va yana o'nlab tashkilotlarni sanab o'tish mumkin.

E'tibor bering, bunday markazlar tashkil qilingan mamlakatlarda yoshlarning radikal-lashishi, ekstremistik va terroristik g'oyalar ta'siriga tushib qolishi bilan bog'liq muammolar deyarli bartaraf etilgan. Chunki bunday markazlar ommaviy axborot vositalari orqali ekstremistik oqimlarni statistik tahlil qilish, dezinformatsiyaga qarshi kurashish, gibrid tahdidlarga qarshi tegishli choralar qo'llash, o'quv-seminar va treninglar o'tkazish, internetda tarqatilayotgan ekstremistik materiallarni monitoring va onlayn tahlil qilib, ularga qarshi kurashish bo'yicha turli strategiyalarni amalga oshiradi. Demak, ommaviy axborot vositalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi strategik qadamlarning ishlab chiqilishi va puxta reja asosida boshqarilishi yurt taqdiriga daxldor hodisaga aylanishi mumkinligini tan olgan holda, axborot-tahlil va media markazlar faoliyatini yanada takomillashtirish choralarni ko'rish lozim.

XULOSA


Shubhasiz, bugunga kelib axborot omili zamonaviy radikallashuv jarayonida eng xavfli va ta'sirchan qurollardan biriga aylangan. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan dezinformatsiya, feyk yangiliklar, manipulyatsiya singdirilgan diniy matnlar va emotsional videolar yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularni radikal g'oyalarga moyil qilib qo'yayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Bu esa geosiyosat yuritishda ustasi farang bo'lib ketgan ayrim g'arazli kuchlar uchun juda qo'l kelishi tabiiy. Natijada geosiyosiy kuchlar din omili va axborot texnologiyalaridan birgalikda foydalanib, hududiy beqarorlik va ziddiyatlarni keltirib chiqarishdan to'xtamayapti. Mazhablararo nizolar, "mazlumlik" obrazi va noto'g'ri fatvolar orqali radikal guruhlar o'zlarining siyosiy maqsadlarini diniy da'vat bilan niqoblab, o'z ta'sir doirasini kengaytirib borayotgani ham bor gap.

Misr va Turkiyadagi bir qator ekspertlar ta'kidlaganidek, radikal g'oyalarga qarshi samarali kurash faqat shaxsni obro'sizlantirish orqali emas, balki sog'lom, ilmiy asoslangan, bag'rikenglikka da'vat etuvchi axborotni tizimli tarqatish bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda preventiv o'chirish, kalit so'zlar va avtomatik monitoring orqali ekstremistik materiallarni aniqlash, ijtimoiy tarmoqlarda tezkor va asosli raddiyalar berib borish, OAV orqali radikal g'oyalarga qarshi bo'lgan media mahsulotlar, maqolalar va hokazolarni ommalashtirish juda muhim.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida shu maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy-tadqiqot va media markazlar tajribasi shuni ko'rsatmogdaki, axborotni jilovlash, nazorat qilish va boshqarish bilan radikallashuvning oldini olish mumkin. Ha, aynan shunday. Bunday markazlar gibrid tahdidlarga qarshi strategiyalarni ishlab chiqish, statistik tahlil, trening va onlayn monitoring orqali yoshlarning ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushib qolish xavfini keskin kamaytiradi. Aynan shu ma'noda, axborot omilini nazorat qilish va undan sog'lom kontent tarqatishda foydalanish – radikallashuvga qarshi eng samarali vositadir, deyish mumkin. Buning uchun milliy va xalqaro ilmiy markazlar, ommaviy axborot vositalari va davlat tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatilishi zarur.

**Abdulhamid MUXTOROV,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi**




Eng xavfli dunyoqarash – dunyo ko'rman-larining dunyoqarashi.

Erix Mariya REMARK



OYDINLAR

JO'RA QORI
BO'TAKO'Z

Kimdir bildi, kimdir bilmay qoldi – shu yilning 7-avgust kuni o'zbek xalqi, millatimiz o'zining ulkan bir ziyolisidan, qalbi-yu orzu-armonlari tog'larday yuksak ulug' farzandidan ayrildi. Mashhur vatandoshimiz, ma'rifatparvar inson, zamonamiz jadidlaridan biri Jo'ra qori Bo'tako'z 99 yoshida bu yorug' dunyoni tark etdi.

Turli manbalar, xususan, adibning 2013-yil Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyotida chop etilgan "Bo'tako'znoma" biografik asari, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik, shoir Shukur Qurbon, Abdulla Qodiriyning farzandi Habibulla Qodiriy, nabiralari Xondamir va Sherkon Qodiriyning esdaliklari, yozuvchi Xayriddin Sultonning "Navoiy – 30" kitobidagi "Oydin" da yurgan odamlar" hikoyasi, shuningdek, "Youtube"da "Mister Otabek" taxallusi blogger bilan qilgan suhbatlari orqali men bu zotning tarjimai holi, ajoyib bir asarga mavzu bo'ladigan sarguzashtlarga boy hayoti, qizg'in ijtimoiy faoliyati haqida ozmi-ko'pmi xabardor edim.

1926-yili Andijon viloyatida tug'ilgan bu zahmatkash va fidoyi, bedor qalb egasining umri davomida boshidan ne savdolar o'tmagan, deysiz. Beg'ubor bolalik chog'laridan boshlangan sargardonliklar, musofirlikning achchiq damlari, vatandan ayro, kindik qoni tomgan aziz tuproqdan yiroqda kechgan og'ir va mashaqqatli, sog'inch-u iztiroblarga to'la yillar... Aytishga oson, ammo o'sha dardli, g'ussali kunlarning azob-uqubatlarini shu davrda yashab ko'rganlargina his etishlari mumkin.

Taqdir taqozosi bilan yetti yoshida ona yurtini tark etgan Jo'ra qori Bo'tako'z uzoq umri davomida o'ndan ziyod mamlakatda yashashga majbur bo'lgan.

Biroq u dunyoning qaysi yeri, qaysi davlatida yashamasin, butun vujudi, qalbi bilan hamisha o'zbek, o'zbekparast, chin millatparvar bo'lib qoldi.

Mustabid tuzum Jo'ra qori Bo'tako'z singari minglab insonlarni tug'ilgan diyoridan judo qilgan bo'lishi mumkin, ammo imyonidan, vijdonidan, yuragidagi el-yurtiga bo'lgan muhabbat va sadoqat tuyg'ularidan ayirolmagan edi.

Xorijda, yot o'lkalarda Vatan sog'inchi bilan o'r'tanib yashab o'tganlar qancha. Lekin ularning barchasiga ham umrining so'nggi onlarini ona yurtida o'tkazish buyurmagan.

Allohning inoyatini qarangki, ana shunday ulug' saodat Jo'ra qori Bo'tako'zga nasib etdi. Ul zotni yaqindan bilgan odamlarning aytishiga qaraganda, Jo'ra qori domla so'nggi 20 yil mobaynida olis Amerika diyorining Nyu-Jersi shtatidagi xonadonidan har yili kanda qilmasdan, O'zbekistonga kelib, bir-ikki oy tug'ilgan yurtida yashab ketar ekan. Butun umr chekkan azoblari, armon-u anduhlari haqqi, Yaratgan egam bu aziz bandasini o'zining cheksiz marhamati ila siyladi – niyatini ijobat ayladi: u o'zi orzu qilganidek, jonajon Vatandagi omonatini topshirdi. Parvardigori olam bu mo'tabar mo'ysafidni o'z rahmatiga olgan bo'lsin.

Donishmandlar, insonning ikkinchi umri – undan qoladigan solih avlodlar, qilgan ezgu amallaridir, deydlar. Marhum vatandoshimiz ana shunday ulkan sharafiga muyassar bo'lgan zot ekani uning hayot yo'li misolida yaqqol namoyon bo'lib turadi.

Afsuski, bugungi o'zbek jamoatchiligi u kishining shaxsiyati va faoliyati bilan yetarli darajada tanish emas. Shu ma'noda, ijodiy tashkilotlar, noshirlarimiz oldida, ziyolilarimiz oldida Jo'ra qori domlarning hozir AQShda istiqomat qilayotgan avlodlari bilan bog'lanib, uning ma'naviy merosini o'rganish, yurtimizda targ'ib-u tashviq qilish vazifasi turibdi. Jumladan, fidoyi ma'rifatparvarning yurak qoni bilan bitilgan umr kitobi – "Bo'tako'znoma" asari zamonaviy matbaachilik talablari asosida, katta tirajda qayta nashr etilsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Quyida ana shu yodnomadan kichik bir lavhani e'tiboringizga taqdim etar ekanmiz, Jo'ra qori Bo'tako'z domlarning taqdim etadigan qo'lib qolamiz.

Elmurod NISHONOV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi

BO'TAKO'Z

Asardan parcha

Men ijtimoiy ko'rinishga siyosiy tasavvur bilan qarab, "Bo'tako'z" laqabini oluvdim. Bo'tadan murodim – bo'taloq, ko'zdan maqsad – uning ma'sum ko'zi edi. Tuyaning ustidagi g'ul (kishan), burnidagi arqon, arqonning uchi sarbonda, sarbon maqsad-manzili sari yetaklamog'da. Bo'taloq esa, onaning ketidan bu safardan biror narsa fahmlamay ketmog'da.

Mustabidlar O'rta Osiyoning yer osti boyliklarini polvon mashinalarda kovlab chiqarib, qator-qator vagonlarda tashib ketmog'da. O'rta Osiyo xalqlari boyliklarini tashib ketmog'dalar. O'rta Osiyo uluslari qo'l qovushtirib turmog'dalar. Bundan boshqa choralari ham yo'q. Mana shu tasavvur "Bo'tako'z" laqabini olishimga sabab bo'luvdi...

O'zbeklar turmushidan olingan "O'tkan kunlar" romanini Zakibey Validiyning "Turkiston tarixi" asari bilan birga o'qib, ko'p hayajonlandim. "O'tkan kunlar" kitobida so'zlar xalqona bo'lib, ko'rinishlar milliy edi. Milliy tuyg'u, milliy ruhda yozilganligi ayon ko'rinib turardi.

O'sha davrda Afg'onistondagi o'zbeklar afg'onlasha bordi. Hindistondagi o'zbeklar o'zaro urducha, panjobiycha gaplashadigan bo'lib ketmog'da edi. O'shalarga o'xshab Turkiyada yashayotgan vatandoshlar ham o'zbekligini unutib, turkcha gaplashadigan bo'lib qolishdi. Qizig'i shundaki, uyalmay-netmay turkcha gaplasha turib, millatchilikdan da'vo qilishadi. O'zlarini millatchi deb bilishadi-yu, millatchi deb tanilishni istaydilar-u, madaniy jihatdan yo'qola borayotganlarini sezmaydilar.

O'sha kunlari domla Zakibeyning "Turkiston tarixi"ni o'qib, vatandoshlar hech bo'lmaganda yurtimiz ozod bo'lguncha o'z milliy tilimizni yo'qotmay, o'zbek tilimizni begona ta'sirlardan saqlab, klassik adabiyotimizni, musiqamizni, ayniqsa, maqom yo'llarini fahmlab tursa, yaxshi bo'lardi, degan tuyg'u menda kuchaya bordi. Chunki domla Zakibeyning asari ham turkcha edi.

Men kelajakda yurtimizning ozod bo'lishi yo'lidagi mujodalarda o'z tuzimiz bilan, mavjudiyatimiz bilan tursak, tabarruk harakatlarda ishtirok etish sharafiga noil bo'lib qolarmiz, degan umidda edim.

Yuqoridagi orzularimni ro'yobga chiqarish uchun Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini qayta chop ettirib tarqatishni afzal ko'rdim...

Boyazid kutubxonasida 1958-yili Toshkentda kirill harfida chop etilgan "O'tkan kunlar" bor ekan, G'uriy Maxdumga o'qitib qarasam, bu kitob bilan Zakibey Validiy menga bergan, 1926-yili Samarqandda arab harfida nashr qilingan roman orasida katta farq bor ekan. Buni ko'rib, hayratda qoldim.

Endi "O'tkan kunlar" asarining asl nusxasini qayta chop etish zarur bo'lib qoldi-ku, deb qaror qildim. Qarorimni Zakibey Validiyga aytdim.

– Juda ko'p pul kerak. Vatandoshlar yordam qilmaydi. Kitobni pulga sotib olishmaydi ham. Hatto kitobni qo'lga bersang o'qishmaydi, o'qisholmaydi. Natijada ko'p xafa bo'lasan, katta pul sarf qilib qolaverasan, ma'yus bo'lasan, sendek sodiq do'stning milliy faoliyatdagi ma'yusligini ko'rib, biz ham xafa bo'lamiz, – dedi u.

Zakibey domladan o'shanday mulohaza olgan bo'lsam-da, qarorimda qat'iy turib harakat boshladim. U davrda Istanbulda arab tilida faoliyat ko'rsatadigan hech qanaqa chopxona yo'q ekan. Usmonli davridan beri ishlatib kelinayotgan arab tilidagi matbaalar yo'q qilingan.

Endi chet elga chiqish kerak edi. Chet elga chiqib kitob chop qilish uchun katta miqdorda pul kerak. Shuning uchun otelim (mehmonxona – tahririyat)ni sotib, katta komission to'lab, chet elga pul chiqazdim. Chunki u davrda Turkiyadan rasmiy tarzda chet elga pul chiqarish mumkin emasdi.

Karachi shahriga bordim. Yor-u do'stlarim, qadrdonlarim bilan ko'rishdim. Ayniqsa, Haybatullo Muhit menga yaqin edilar.

– Mashhad shahridagi yurtdoshlar orasida matbaa ishlaridan boxabar kishilarning bo'lsa kerak. "O'tkan kunlar" romanini arab harfida qayta chop ettirishingiz uchun u yerda oqil odam topilsa, yaxshi bo'lar edi, – dedilar.

Menga ham shu maslahat ma'qul ko'rinib, Mashhadga jo'nadim. Lekin u yerda o'zbek harfini teradigan kishi topolmadim.

Turkiyada, arab yurtlarida, Pokiston va Hindistonda ham o'zbekcha harfli chopxona topish mumkin bo'lmay, shu niyatda Eronga borgan edim. U yerda ham imkoniyatni topolmay, Karachiga qaytib keldim. Pokistonning bu port shahri aslida "Kirachi" bo'lsa kerak, keyin "Karachi" bo'lib qolgandur.

"Anjuman" nomidagi matbaaga shogird bo'lib kirdim. Matbaadan o'zimga xos bir joy ajratib berishdi. Mehnatim uchun menga haq to'lashgani yo'q.


Xullas, harf terishni, terilgan matnini tarqatishni, harflarni yuvish, mashinaga qo'yishni birin-ketin o'rgandim.

Endi yana bir qiyinchilik chiqdi. O'zbek

tilining ohangiga kerak bo'ladigan ayrim harflar Karachida yo'q ekan. G'arbiy Germaniyadan u harflarning qolipini keltirib, ko'paytirdim.

Ana endi atoliqi yozuvchi Abdulla Qodiriyning mashhur romanini tera boshladim. Avvaliga kunda bir bet, so'ngra ikki bet terib, ikkinchi, uchinchi kuni mashinaga bermoq bo'ldim. Korrektura o'qish uchun yordamchi topa olmadim. Savodxon o'zbeklar ham no'gay imlosini bilmas edi. Ayniqsa, romanni o'qish uchun o'rta ma'lumotli bo'lish kerak. No'gay imlosini o'qiy oladigan bir necha vatandosh topdim. Ularda mendagi ishq yo'q edi.

"Kitobga qarab turing, men korrekturani o'qiyin" desam, korrekturani o'qib, xatolarini isloh qila olmaydi. "Xo'p, men korrekturani o'qiyman, siz kitobga qarab turing", desam, uxlab qolishadi.



Chunki ularda milliy his, milliy tuyg'u yo'q. Islom nomidagi arab ishq bor. U bechoralar o'zini avvalo musulmon, so'ngra o'zbekman, deydi. O'zbekona tuyg'u yuvib tashlangan.

Endi o'zim bir kalima kitobdan, bir kalima korrekturadan o'qib tuzata boshladim. Korrektura xatosini shunday bartaraf etar edim. Satr va kalimalar, sahifaning chiroyli chiqishiga diqqat qildim. Bir kalimani, bir satrni necha bor qisqartirib, necha bor uzaytirib chiqar edim.

Shunday qilib, matn terilishidan to kitob holini olguncha ko'z nurimni to'kib, bir yil deganda kitobni chop ettirdim.

O'zbekistonga matbaa kelganidan buyon ham, bugunda ham "O'tkan kunlar" Bo'tako'z nashr etgan kitobdek chiroyli, xatosiz holda chop qilingani yo'q. Afsuski, bugungacha men nashr etgan "O'tkan kunlar" romanini diqqat bilan, texnik tomonlarini, qilingan mashaqqatlarini tekshirib, baho bergan kimsa chiqmadi.

Sun'iy charmdan muqova qildirdim. Kitobning muqovasida, zarhalda "O'tkan kunlar" tamg'asi bor. Muqovani ochishingiz bilan 1926-yili Samarqandda chop etilgan kitobdagi uzoqdan Marg'ilonga o'tiq kelayotgan Otabekni oy ichida kutib o'tirgan Kumush tasviriga ko'z tushadi. Men o'sha nusxani qaytadan ko'paytirdim. 1958-yilda "O'tkan kunlar"ning shoh jumlarini, milliy javharlarini olib tashlab, ruslar tomonidan nashr ettirilgan nusxadan xabarim bo'lgan holda, matbaa xatolarini ham tuzatib, chop ettirdim...

Pokistonda istiqomat qiladigan Haybatullo eshon asli andijonlik, Tojixoja eshon ipakchining o'g'lidir. Uzun bo'yli, barvasta odam. Andijonda gimnaziyani bitirgan. Shuning uchun oliy ma'lumotli bo'lib ko'rinadi. Halol, pokiza, vijdonli odam.

Men Karachida nashr ettirgan "O'tkan kunlar" romaniga kirish so'zi yozib berdi. Kitobning o'tanchi bo'limida chop etildi. Men u kishini ko'p hurmat qilib, o'z og'am o'rmda ko'rar edim. Yotgan joyi jannatda bo'lsin.

Afsus bilan aytayki, kitobga ko'rsatilgan ixlosni na chet eldagi vatandoshlar, na O'zbekistondagi vatandoshlar farqiga bordi. Romanga bo'lgan sevgimni, ishqimni payqamadilar.

Xullas, 1961-yilda kitobga chop bo'lib, sun'iy bo'lsa ham, charm jildlik etib tayyorlandi.

Matbaa xodimlari:

– Jo'ra aka bu kitobga bu qadar mehnat qilib, nihoyatda e'tibor bilan chiqarishidan ma'lum bo'ladi, uning har bir jildini falon pulga sotadi shekilli, – deyishib, o'ta maroqlanishgandan so'ng so'rab qolishdi: – Qori sohib, kitob qanchadan sotiladi?

– Pulsiz, bekorga tarqataman, – desam, hang-mang bo'lib qolishdi.

Sababini o'rganmoqchi bo'lishdi.

– Diniy kitobmi, Xudo uchunmi? – deyishdi.

– Yo'q, el-u ulus uchun, – desam, yana og'izlari ochilib, hayron bo'lishib qoldi va so'zlarimdan juda ta'sirlanishdi.

– Rahmat sizgal! – deyishdi. Sharafimga katta ziyofat tashkillashtirishdi, bo'yninga guldandardanliklar taqishdi...

Ma'lumki, "O'tkan kunlar" romanining o'rta bo'limi 1958-yili Karachida chop bo'lib chiquvdi. Bu gal – 1961-yilda romanning uchinchi bo'limi

yana Karachida "Urdu tili vaqti"ning "Anjuman-press"ida chop qilindi.

Kitobni Hindu Pokistondagi tanishlarimga pochta orqali yubordim. Poyezdda Karachidan 24 soat yo'l bosib, Ravolpindiga o'zim borib, To'qa Hoji, No'monjon, Ahmadjonlarga tarqatdim. Singhdagi ayrim shaharlarga, Navopshodagi Soli qori, Abdusalomlarga ham o'zim borib berib keldim.

Kitob Ismoil G'aspralining imlosida terilgani uchun o'qishda qiyналganlarga o'qilishini ham o'rgatib, kitobga hech qanaqa baho yoki o'rnga hadya olmasdan, har qanday tamadan yiroq turgan holda, birovdan yordam olmagan holda tarqatar edim. Falon qishloqda o'rmon ichida kechinayotgan vatandosh bo'lsa, u yerga borib kelish ikki kunni oladigan safar bo'lsa ham, borib

Jo'ra qori BO'TAKO'Z

Hakimzodaning "Zaharli hayot" pyesasi, Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur'i, Sadriddin Ayniyning "Qori ishkamba"si, yana boshqalar...

Harakatimiz meva bera boshladi.

Kirilcha kitoblarni shu harfda savodi chiq-qanlarga ulashar edik. Aytganimek, siyrak bo'lsa-da, bu ishlar, haytovur, egallanmog'da edi.

Hamyurtlarga derdimki, "Vatanni eslang, unutmang, vatandan xabar olmoq har jihatdan qaraganda ham qarz, ham farz. Kitoblar o'ris harfida bo'lsa-da, uni o'qib keragini olaylik, nokeragi kitobda qolaversin".

Karachida 1961-yili arab harfida bosilib chiqqan "O'tkan kunlar" romanini kim yaxshi o'qiydi?" degan tanlov e'lon qildik. Abduraim Salim go'zal, ravon o'qib berdi.

Toifda menga Mirahmad Toshkandiy juda chiroyli tajvidiy do'ppi beruvdi, shu ajoyib do'ppini hadya qildim. Abduraim Salimni hamma o'rmdan turib olqishladi...

1966-yili, besh yillik kutishdan so'ng, muvaqqat viza bilan sayyoh o'laroq birinchi marta Toshkentga musharraf bo'lib, tabarruk tuprog'ini ham ko'zim, ham ko'nglim bilan o'pdim.

Bir muddat Vatanda bo'ldim. Andijon, Farg'ona, Namangan, O'sh, Samarqand shaharlarini ziyorat etdim...

Nihoyat, safarim qarib, Odessaga, undan Suriya orqali Turkiyaga jo'nab ketdim...

Ona yurtimiz – go'zal O'zbekistonga borib kelib, sotsialist dunyodagi vatandoshlar bilan kapitalist dunyosida istiqomat qilayotgan vatandoshlarimning bir-biri bilan aloqa qilishida vositachi bo'ldim.

1969-yili Turkiyada o'ng-so'l tortishuvi kuchayib ketdi. Birini biri o'ldira boshladilar...

Vatanga borib, u yerning siyosiy tomiriga sharbat berish payti kelgan edi. Ochiroq'ri, kapitalist dunyoning havosini bo'lsa ham, quldorlik sotsializmga yetkazish qoluvdi...

Bu birovning ta'limotiga ko'ra emas, o'zbekona imon va e'tiqodim, milliy vijdonim buyrug'i edi. Mana shu tushuncha meni ona yurtimga qaytib kelishga undadi.

Toshkentda meni katta muharrir saviyasida "Vatan" jamiyatiga ishga oldilar. Keyin "Markaz-2"dan ikki xonali uy berdilar. Chet eldagi vatandoshlardan kelgan maktablarga javob yozar edim. Bundan boshqa, "Oydin" gazetasining korrekturasini tekshirib, texnik xatolarini tuzatardim.

Abdusodiq Irisov mudir edi. Jurnalist Nodirxon aka, doktor Habibullo Qodiriy va boshqa adabiy xodimlar ham bor edi. Ziyo Emin har bir ishga mas'ul bosh kotib edi.

So'ngra gazetaga To'lg'in Rustam mudirlik qildi.

Bir kun Nodirxon aka gazetaning texnik tomonlarini ko'rishim uchun berib ketdi. Gazeta mingdan ko'p imlo va bosma xatosi bilan bosilib chiqibdi. Uni pochtalash o'xtatildi. 5000 nusxa gazetani bog'chada yoqib yubordilar. "Oydin" gazetasining mudiri ishdan olindi.

Meli Jo'ra gazetaga yangi mudir bo'lib keldi. Yaxshi odam edi. Kasal bo'lib ishdan ketdi. Bu odam "Umrim daftar" nomli asarida mening haqimda iliq gaplar aytibdur.

Undan keyin Mlad Hakim gazetaning yangi mudiri bo'lib keldi. Bu odam bilan hamkorligim 1983-yilgacha surildi.

...Toshkentda borgan sari kommunizmning yolg'on va dalalarini, sotsializmdan amalda asar yo'qligini, inson haqlari oyoqosti bo'layotganini ko'ra boshladim.

Dalil keltirish kerak bo'lsa, yer osti, yer usti boyliklar tannarxida Moskvaga jo'natilarkan. Yer – davlatniki, davlat – mustabidlarniki. Polvon mashinalarda qazib olingan ashyoga qazib chiqarish xarajatinigina hisoblab, olib ketaverarkanlar.

Xalq qo'rquv ichida – tili boshqa, dili boshqa. Hech kim o'zining so'ziga ishonmaydi. Munofiqlona hayot. Yerli xalq o'zi og'ir ahvolda. Bir-biridan o'zib, ulug' millatchilik (shovinizm – tahririyat)ni quvvatlab-qo'llaydilar.

Lekin "O'zbekligiga faxrlangan, tegirmon toshini yelkasida ko'tarib, milliy mansubiyatini yo'qotmay, qo'ldan kelganicha o'z xalqining milliy umrini uzaytirib yurgan millionlar qahramonlar ham yo'q emas edi, albatta. Aslida o'shalar edi O'zbekistonni O'zbekiston qilib turgan. Ular haqidagi quvonchimni bir-ikki misra bilan ifodalab bo'lmaydi.

Demog' istaymanki, yerli ulusda ozodlik yo'q, shuning uchun bo'lsa kerak, necha yil kuzatgan bo'lsam, O'zbekiston kommunistik partiya'sining birinchi kotibi Sharof Rashidovning yuzida kulgi u yoqda tursin, miyig'ida kulimsirashni ham ko'rmadim. O'ylaymanki, u odam o'zbek xalqiga bo'layotgan og'ir zulmni payqab, ko'rib turgan...

Shu zaylda o'n yetti yil istiqomat qildim. Ochiroq'ri aytсам, ma'naviy qamoqda edim. 50 kilometrdan tashqariga ijozatsiz chiqish mumkin emas edi. Shuning uchun o'z yurtimni aylanish uchun ijozat olaman, deb, bu o'n yetti yil ichida Toshkentdan tashqari chiqqanim yo'q. Tangridan boshqa sirdoshim yo'q edi...



GURUNG

KO'NGIL OVOZI

O'zbekiston xalq artisti

Afzal RAFIQOV bilan ikki pardali,
to'rt ko'rinishli suhbat**Birinchi parda.****Birinchi ko'rinish. Teatr.**

– 1973-yil. Hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatriga ishga keldim. Boshida sahna ishchisi bo'lganman. Bolg'amni kamarimga qistirib, aktyorlarning sahnadagi harakatlari, yuz ifodasi, ovozi kuzatardim. Besh yillik institut tahsili bir yon, ustozlarni kuzatish bir yon bo'lgan. U paytlarda sahnada kimsan – Shukur Burhon, Olim Xo'jayev, Nabi Rahimov, Sora Eshonto'rayevalar rol ijro etardi. Ularning qadami tekkan sahnaga, hatto, o'zlari yo'q paytda ham aktyor sifatida ko'tarilish kishida kuchli hayajon uyg'otardi. Eh-he, ana shu hayajonni bosib olguncha ozmuncha vaqt o'tmagan!

Shu orada rejissyor Bahodir Yo'ldoshev Shillerning “Qaroqchilar” pyesasini sahnalashtirdi. Ilk bor menga rol berishdi. Bosh qahramonning do'sti Shveyserni ijro etganman. Baxtim bor ekan, debiutim ko'pchilikka manzur bo'lgan. Hatto, “O'zbekiston madaniyati” gazetasida “Qutlug' qadam” sarlavhali maqola ham chop etilgan. Hozir o'ylab qolaman, u paytdagi san'atshunoslarda hafsala zo'r bo'lgan ekanmi... Ular har bir spektaklga erinmay borishar, nafaqat sahna asari, balki har bir aktyorning ijrosini atroflicha tahlil qilishar edi. “Yarq” etgan iste'dodni payqashsa, albatta, jamoatchilikka ma'lum qilib qo'yishni o'zlarining burchi deb bilardi. Bugungi san'atimiz tanqid qilinganda kaltakning bir uchi san'atshunoslarga ham tegadi. Chunki hozir teatrlarda qanday yangi asarlar qo'yilayotgani, viloyatlar teatrlaridagi yangiliklar haqida san'atshunoslarning tahlillari vositasida emas, asosan jurnalist va blogerlarning materiallari orqali tanishyapmiz.

Aktyor doim o'z ustida ishlashi shart. Ichki va tashqi olamini sayqallab borishi, o'zini o'zi mehnat-u zahmatga ro'baro' keltirishi kerak. Har bir kasbning o'z mashaqqati bo'ladi. Chidaganga chiqqan, san'atning qattiq nonini yeyishni.

Ikkinchi ko'rinish.**Dublyaj.**

– 1968-yil. Kinostudiyada ishlayman. Dublyaj bo'limida kino qo'yib beraman. Yengil ish, bo'sh vaqt ko'p. Dublyajchilarga kinosini qo'yaman, o'zim ularni kuzataman. Mikrofon oldida Razzoq Hamroyev, Yayra Abdullayeva, Hamza Umarov, Yoqub Ahmedov, Obid Yunusov, To'liq Tojiyev va boshqa san'atkorlar o'tiradi. Begona tildagi kinoasarlarning ona tilimizda jaranglashini eshitib, zavq tuyadi kishi. Yana deng, aktyorlarimiz shunchalik ustaki, ba'zan qahramonlar xarakteri asl ovozdan ko'ra dublyajda ko'proq ochilganday tuyuladi. Har holda, o'sha paytda menga shunday tuyulgan.

Tungi smena edi. Dublyaj qiroli Hamza Umarov “Mayor Vixr” filmida polkovnik obraziga ovoz berishi kerak ekan. U kishining kun tartibi nihoyatda tig'iz bo'lgani uchun dublyajga asosan kechgurun vaqt ajratardi. Menga o'xshagan bo'ydoq texnik xodimlar kechki navbatchilikka ixtiyoriy-majburiy olib qolinaridi. Kinoni qo'yib berib, kuzata boshladim. Bir mahal ekranda yosh ofitser paydo bo'ldi. Polkovnik unga neder buyruq berdi, u esa qoida bo'yicha javob qaytarib chiqib ketdi. Ikki og'iz so'z. Lekin shuginaga ham ovoz berilmasa, ish to'xtab qoladi. Yarim tunda bir aktyorni topish amrimahol. Shunda rejissyorimiz Eson Karimov meni chaqirib: “Xo'p bo'ladi, janob polkovnik”, jumlasini o'qib berishimni so'rab qoldi. Jon deb rozi bo'ldim. Bu dublyaj sohasidagi ilk qadam edi.

Oradan oltmish yilga yaqin vaqt o'tdi. Teatr qatorida dublyajda ham salmoqli ijod qildim. Bahoni esa xalq beradi, albatta.

Ikkinchi parda.**Uchinchi ko'rinish. Hazrat Navoiy.**

– Hayot va ijod yo'limda yaxshi-yomon kunlarni ko'p ko'rdim. 1990-yilda teatrdan ketmoqchi bo'lganman. Chunki aktyor nihoyatda qaram odam. Rejissyorga ma'qul kelish kerak, direktorga yoqish kerak, teatr siyosatiga ko'nish kerak. Eng asosiysi esa tomoshabinga manzur bo'lish darkor. Shuning uchun barchasiga qo'l siltab ketmoqchi edim. Ammo shu paytda hayotimga bir quyosh kirib keldi yoki men bir kakhkashon bag'riga kirib bordim. Kamina hazrat Navoiy ijodi bilan yaqindan tanishdim.

Bunga Bahodir Yo'ldoshev sababchi bo'ldi. Aslida u kishi ko'p yillar oldin meni sahnaga olib chiqqan edi, bu safar esa sahnadan tushib ketishimga yo'l qo'ymadi.

Mustaqillik arafasida teatrimizda Alisher Navoiy asarlari asosida “Iskandar” spektakli sahnalashtirildi.

Navoiy roli uchun Yodgor Sa'diyev va kamina tanlangan edi. Avvaliga ishonmadim. Chunki shu vaqtgacha asosan xorij pyesalarida ajnabiy rollarni o'ynardim. Birdan Navoiyga o'tish...

Ana shu rol, to'g'rirog'i, Navoiy ijodi bilan yaqinlashuv hayotimni butkul o'zgartirib yubordi. Kimligimni, qaysi tamaddun vakili ekanligimni, qaysi avlodlarga mansub bo'lib, tomirlarimda kimlarning qoni oqayotganini yaqqol angladim. Go'yoki hayotim boshqatdan boshlandi.

Shu bois o'shandan beri Navoiy asarlarini tomoshabinga yetkazishdan charchamayman. O'zimni hayratga solgan satrlarni boshqalarga ham ilinaman.

Hazrat bilan tanishuv meni ilhomlantirgan, ul zotning beqiyos ijodiy merosi o'ziga rom etib qo'ygan edi. Nima ish qilsam ham Navoiyni qanday usulda xalqqa yanayam yaqinlashtirish mumkinligi haqida o'ylardim.

Hazrat Navoiy ijodiga qiziqish “Xamsa”dan parchalarni simfonik orkestr jo'rligida ijro etish ishtiyoqini uyg'otdi. Do'stim, O'zbekiston xalq artisti Ismoil Jalilov bilan maslahatlashib, ijroni simfonik orkestrning jahon musiqa durdonalari ijrosidagi musiqa va so'z jo'rovziligida amalga oshirdik. Toshkent davlat konservatoriyasining katta zalida hazrat Navoiy tavalludining 570 yilligiga bag'ishlangan tadbirda “Xamsa”ning besh dostonidan parchalar tomoshabinlar e'tiboriga havola qilindi. 2011-yilning kuzida xalqaro simpoziumda ushbu konsert takroran namoyish etildi.

Taqdir taqozosi bilan 2014-yildan beri O'zbekiston davlat akademik rus drama teatrida faoliyat olib boryapman. 2016-yili rejissyor Baxtiyor Hamidov tomonidan “Degonimni ulusg'a marg'ub et...” (“Иди, моё творение в народ...”) deb nomlangan spektakl sahnalashtirildi. Spektakl sahnada bir vaqtning o'zida ham o'zbek, ham rus tillarida jaranglardir: “Xamsa”dan lavhalarni Navoiy tilining asliyatida o'qib bo'lgach, hamkasblarim aynan shu lavhani rus tilida o'ynab berishardi. Hazrat tavalludining 580 yilligi munosabati bilan rejissyor Valixon Umarov “Hayrat ul-abror”ni rus tilida sahnalashtirdi. Tomoshabin tushunmasa kerak, didaktik asar bo'lsa, pand-nasihat kimga yoqadi, deb o'ylagan edim. Ne ajabki, tomoshabin juda yaxshi qabul qildi. Albatta, bu buyuk ajdodimiz satrlari zamiridagi ohanrabodan bo'lsa kerak.

Men so'nggi 35 yillik ijodim uchun Navoiy oldida qarzdorman.

To'rtinchi ko'rinish.**Gohi shodlik, gohi g'am...**

– Hayotimdagi eng unutilmas voqea – Qur'oni Karimning ma'nolar tarjimasini ovozlashtirganim, deb o'ylayman. Bu muqaddas kitob o'zbek tilida ilk bor 1991-yilda chop etilgan edi. Tarjimoni – ulug' olim Alouddin Mansur hazratlari. Ilohiy kalom qalbmida nur sochar ekan, daf'atan kitobni audio shaklda yozib olish fikri tug'ildi. Ba'zilariga o'qigandan ko'ra eshitgan ma'qul. Nihoyat, 2007-yilda bu xayriy ish amalga oshdi. Maqsadim: muqaddas oyatlar tarjimasini mazmunini ohang orqali yanada tushunarli va ta'sirli qilish edi. Hissiyotni berishga harakat qilganman. Bu Qur'oni Karim tarjimasini ovozlashtirishdagi ilk tajribalardan biri edi. Kamchiliklar bo'lgani tabiiy. Lekin ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. Xalqimiz iliq qarshi oldi.

Ovoz imkoniyatlarimdan ana shunday foydalanar edim...

Navoiy hazrat menga iroda, sabr va shukrni ham o'rgatdi. Ovozim bo'g'ilib qolganda, balki, shuning uchun u qadar dovdirab qolmagandirman. Bu yog'i zamonaviy texnologiyalar rivojlanyapti. Yaqinda sun'iy intellekt yordamida ovozimni tiklashibdi. O'sha eski ovozigama o'xshab ham ketadi. Bu meni, albatta, quvontiradi. Endi hozir shu ovozda ham, mana ishlayapman, Xudoga shukr. Dublyajda ham qatnashyapman.

Mendan “Armoningiz bormi?”, deb ko'p so'rashadi. U ko'nglim Ka'basida saqlanib turgan narsa, uni oshkor qila olmayman. Umid haqida gapirish mumkin. Noudim – shayton. Lekin endi amalga oshirib bo'lmaydigan narsalar bor, ularni gapirsa bo'ladi. Masalan, men aktyorlikni tanlaganimdan beri sahnada Hamlet rolini ijro etishni orzu qilardim. Bir paytlar ustozim Bahodir Yo'ldoshev men bilan “Hamlet”ni repetitsiya ham qila boshlagan edi. Biroq oxiriga yetmay qoldi...

Bu yog'ini ko'raveramiz. Hayot davom etmoqda.

Zarnigor IBROHIMOVA
yozib oldi.

E'TIROF

Chegachi atalmish kasb egalari bo'lganini bilasizmi? Katta avlod vakillari eslashar, ammo yoshlar “Bu qanaqa kasb?” deb yelka qisishlari aniq.

O'tgan asrning 60-yillarida aksar idish-tovoqlar sopoldan yasalgani uchun ehtiyotsizlik oqibatida sinib qolishi odatiy hol edi. Uy bekasi siniqlarni tashlab yubormasa, yakshanba kuni bo'ladigan bozorga yo'li tushganida chegachiga chegalatib olardi. Chegalatish – sopol idishni yamash degan. Bizning avlod chegalangan piyola, choynak, tovoq, kosalarda choy ichgan, ovqat yegan. Chunki o'sha davrlarda chinni idishlar o'ta noyob mol hisoblanib, do'konlarda peshtaxta ostida ustiga ikki hissa narx qo'yib sotilardi. Uyam tanish-bilishlarga.



IJOBIY “YO‘QOTISHLAR” DAVOM ETADI...

80-yillarga kelib temir choynaklar paydo bo'ldi. Ammo bu matoh ham sifatsiz ekanki, goh dastasi, goh aylanma yasalgan quyari sinardi. Shundayam tashlab yuborilmay, endi chegachiga emas, payvandchiga yumush topilardi.

Mustaqillikdan keyin tadbirkorlar chetdan turli chinni idishlar keltirib, bozorlarimizni to'lirdi. Chinni idishlarni o'zimizda yasash ham yo'lga qo'yildi. Oqibatda “chegachi” kasbi kasodga uchradi, “chegachi”, “chega” so'zlari arxaik so'zlarga aylanib ketdi.

Qishlog'imizda hunarmand ustalar ko'p bo'lardi. Hayitboy buva g'oyat ishlalmon usta bo'lib, 50-yillarda 30 tonna kug sig'adigan yog'och kema yasagan. Bu kemada hali vohaga temir yo'l yotqizilmagan davrda Amudaryo orqali kolxozga kimyoviy o'g'itlar keltirilgan. Usta Hayitboyning o'g'li usta Sa'dullaga garchi kema yasash nasib qilmagan bo'lsa-da, ot va eshakarava yasashning hadisini olgandi. Muqaddam aravalarning g'ildiraklari tuproq yo'llarda yurishga mo'ljallanib yog'ochdan yasalgan bo'lsa, yo'llarga tosh tashalishi, asfalt qilinishi barobarida g'ildiraklarini temirdan yasash rusumga kirgandi. Qishloqdagi har ikki xonadonning birisida, albatta, arava bo'lardi. Qishloq ahli uchun arava yuk tashish va hatto uzoq joylarga borish uchun ulov vositasi edi. Yurtimizda yengil mashinalar ishlab chiqarila boshlagach, aravalar odam tashish vazifasidan ayrilishdi va... Usta Sa'dulla buva chorak asr ilgari faoliyatidagi so'nggi aravani yasagan. Ko'cha-ko'ya aravalar ko'rinmay qolganga besh yillar bo'ldi. Ularning o'rini turli yoqilg'ida yuradigan, hatto ikki-uch tonnagacha yuk tashish quvvatiga ega aravali mototsikllar egalladi.

Endi esi kira boshlagan bolalar “O'tkan kunlar” filmidagi Kumushning Marg'ilondan Toshkentga kelin bo'lib otaravada kelgani lavhasini ko'rib go'yo bular etaklardagi ajoyibotlarmi, deb hayratlanishlari aniq.

Qishlog'imizda “darg'alar” laqabli katta qavm yashaydi. Bu qavmga laqab katta bobosi Ramat buva daryoda kema darg'asi bo'lgani uchun berilgan. Ayni shu davrdan meros: “salodovchilar”, “guzarchi” laqablari hali-hamon yashab kelmoqda. Daryo o'zani tortilgan, kemalar suzmay qo'ygan, yuklar yer-u osmon ulovlarida dunyoning turli burchaklariga tashilayotgan zamonada bu atamalar ham o'z umrini yashab bo'lgan.

Sovet davrida eng mashhur so'zlardan biri “defitsit” edi. Tilimizda “kamyob” mazmunini beradigan bu so'z aynan aholi uchun zarur keng iste'mol mollarga nisbatan qo'llanilardi. To'y qilayotgan odamlar rayqo'mga o'sha vaqtda xotin-qizlar orasida rusum bo'lgan, ko'rpa-to'shak tikiladigan matolar: baxmal yoki villur so'rab bir quloch ariza yozib borar va navbatga yozilib, o'n-o'n besh metr mato olishardi. Yengil mashina u yoqda tursin, videomagnitofonlar

ham rayqo'm byurosi qarori bilan ajratilganini hozirgi avlod eshitsa, hayratdan og'zi ochilib qoladi.

Hozir barcha turdagi elektron matohlarni uyingizga beminnat keltirib berishadi.

“Defitsit” so'zi iste'moldan chiqqaniga o'n yillardan oshdi.

Sinfdoshim usta Jumaboy ellik yildan oshdiki, temirchilik ustaxonasini yuritadi. Avvallar jamoa xo'jaligi garajida ustaxonasi bo'lardi, kolxozlar tugatilgach, uyi oldida ustaxona qurib, elatga xizmat ko'rsata boshladi. U oldinlari tengqurlari to'y-tomoshalarida bemalol o'tira olmas, ishi boshidan oshib yotgani, odamlar kutayotgani uchun uzr bildirib vaqtliroq qo'zg'alardi. To'rt-besh yil bo'ldi nafaqaga chiqqan tengqurlari bilan, kerak bo'lsa, erta tongdan qora xuftongacha bemalol gurunglashib o'tiradi. Sababi...

Sababini o'zi shunday ta'riflaydi: “Ustaxonam kasod bo'lyapti. Kuniga bir-ikki odam bosh suqmasa, kun bo'yi pashsha qo'rib o'tiraman. Yaqin-yaqinlargacha eshag-u otlarga taqa yasar va qoqardim. Endi qayda? Yoz boshlanishi bilan paxsa devordan imorat tiklamoqchi bo'lganlar loy otadigan kapcha yasatishga navbat turishardi. Endi imoratlar pishgan g'isht va yana boshqa zamonaviy g'ishtlardan tiklanyapti. Yetti yil bo'ldi bir dona kapcha buyurgan odam yo'q. Ustaxonam elat odamlari yasatadigan bel, ketmon, o'roq bilan aylanib turgandi. Endi esa... bir qarich yermiya mini uskunalarida haydab, ekishyapti – bel-ketmonga ish qolmadi. O't-o'lanni o'radigan turli uskunalar chiqdi – o'roqning davri o'tdi. Bir vaqtlari erta bahordan kech kuzgacha kunlarim o'roq charxlash bilan o'tganini eslasam kulgim keladi. Zamon o'zgarib ketdi, birodarlar!”

Jiyanimning katta o'g'li bolalikdan etikchiga shogird tushib, so'ngra uyi yonida mo'jazzgina xona tiklab etikchilik qilayotgandi. O'sha vaqtlari erta-kech ustaxonasidan odam arimas, yilaro kattayayotgan ro'zg'ori qozonini etikchiligi orqasidan qaynatardi. Uning ustaxonasi yopilb ketganiga ham besh yillar bo'ldi.

Etikchilik hunari nega kasodga uchradi? Sababi oddiy – odamlar yamoq solingan oyoq kiyimi kiymay qo'yishdi. Tufli, etigi poshnasi sal qiyshaysa yangisini olishadi. Qolaversa, hozirda tadbirkorlar tikayotgan oyoq kiyimlari ancha sifatl – besh-o'n yilga chidam beradi.

“Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasida asar qahramoni kinoya bilan aytgan “Ho'rozqand chet elniki desa, yotib olib yalashadi” iborasida tilga olingan nimarsa hozirgi bolachalarga umuman tushuniksiz. Hafta-o'n kunda “Shisha olamiz!” deya ko'chama-ko'cha qichqirib yuradigan yumushbardorlar ko'rinmay qolganga ancha bo'ldi. Odamlar tilida negadir “shara-bara”chi deyiladigan bu hojatbaror insonlar topshirilgan har bir bo'sh aroq shishasi uchun bir dona xo'rozqand berishardi. Kimlardir uyida yasagan xo'rozqandlar o'sha

vaqtlarda yoymachi ayollarning asosiy mahsulotlaridan biri edi. Bola borki, xo'rozqand yalamasa kuni o'tmasdi-da...

Tadbirkorlarimiz tomonidan chiroyli qog'ozlarga o'ralgan turli shirinliklar ishlab chiqarilishi bilan “xo'rozqand erasi” yakunlandi. Bu yoqda bo'sh shisha sotib oladiganlar ham ko'rinmay qolishdi. Sababi, hozirda shisha idishlar turli o'lcham, sig'imlarda ko'plab ishlab chiqaril-yapti. Oldingi zamonlardagidek bo'sh shishalarni yuvib, unga qayta suyuqlik quyish iste'moldan qolgan. To'g'ri, turli o'lchamdagi shishalarni butun holda emas, sindirilgan holatda xarid qiladigan tadbirkorlar paydo bo'lishdi. Ular shisha siniqlarini qayta quyib, turli o'lchamdagi shisha idishlar ishlab chiqarishyapti.

Bolalik vaqtimizda qish oylarida elatda kunora kigiz bosilardi. Kigizchi ustalar uy egasi to'plab qo'ygan qo'y junini yaxshilab yuvib, suv bilan tinmasdan ho'llab turar, to'rt-besh bilagi baquvvat yigittlar uni dumaloq shaklda tinmay pishitib borishardi. Sal beli baquvvatroq xonadon egasi oddiy qora kigiz bilan kifoyalanmay, “takanavat” atalmish kigiz bostirardi. Takanavat kigizlarga turli bo'yoqlarga bo'yalgan junlardan naqsh tushirilardi. Tun bo'yi kigiz bosib, bilaklarimiz shililib ketardi.

Kigiz bosilmay qo'yganiga chorak asrlar bo'ldi. Uylarni to'shashda kigiz o'rmini gilam va paloslar egalladi. Yaqindagina takanavat kigizini avaylab-asrab, kuya yeyishidan saqlagan, faqat aziz mehmonlar tagiga solgan kishilarning avlodlari bugun eshik ostonasiga dovur gilam to'shashgan.

Elatimizda nom qozongan Mat-yoqub kigizchi dunyodan ketganiga o'n yillardan oshdi. Uning bobolaridan meros hunari o'zi bilan ketdi.

Bularni nimaga esladik? Sababi bor: hozirda ayrim noshukur bandalar “Mustaqillik nima berdi?” deb piching qilishadi. Bashang kiyin-gan, tagida yap-yangi mashina, qo'lida qimmatbaho telefon, imorati “yevropacha uslub”da tiklangan bu noshukurlar bilan tortishish ortiqcha. Davralarda o'shanday kimsalar gap qo'zg'ab qolishsa bir-ikki savol beraman: “Sen chegalangan piyola-choynakda choy ichganmisan?”, “Uyingda nechta kigiz bor?” O'sha noshukurlar savollarimga javob topolmay angrayib qolishadi.

Buyuk istiqloqla erishgach, o'tgan qisqa fursatda erishgan, topgan-larimizni aytib o'tirmayman – bu haqda oynayi jahon har kuni bong urmoqda. Men mustaqillik tufayli tarixga aylanib ketgan ijobiy ma'nodagi “yo'qotishlarimiz”ni yodga olaman, xolos.

Ha darvoqe, “degrezchilar” haqida eshitganmisiz? Bu nima yoki kim deyishingiz tayin. Dengizchilar emas har qalay.

Gapni ko'paytirib o'tirmaylik, bu kasb ham istiqloq tufayli yo'qotgan-larimizdan biri.

Ro'zimboy HASAN,
jurnalist



JAHON AYVONIDA

ILON MASK KOMPANIYASI MINTAQAMIZDA

Starlink Qozog'istonda sun'iy yo'ldosh internet xizmatlarini rasman ishga tushirdi. Bu SpaceXning past orbitali sun'iy yo'ldosh tarmog'i orqali yuqori tezlikdagi va barqaror internetga ulanish imkonini beradi, deyiladi Raqamli rivojlanish, innovatsiyalar va aerokosmik sanoat vazirligi xabarida. Ilon Mask ham buni tasdiqlagan.



“Spot” manbasiga ko'ra, Starlink xizmatlari Qirg'izistonda shu yil oxirigacha, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistonda esa 2026-yilda ishga tushirilishi kutilmoqda.

TELEGRAM VA WHATSAPP QO'NG'IROQLARI CHEKLANDI



Rossiyada ushbu messengerdagi qo'ng'iroqlar “jinoyatchilarga qarshi turish uchun” qisman cheklangani haqida xabar berdi “РНА Новост”.

“Telegram va WhatsApp Rossiya fuqarolarini aldash va pul undirish, qo'poruvchilik va terrorchilik faoliyatiga jalb qilish uchun ishlatiladigan asosiy ovozi xizmatlarga aylandi”, – deyiladi “Роскомнадзор” bayonotida.

AES FAOLIYATIDA FAVQULODDA HOLAT

Fransiyaning Dyunkerkerk shahridan uncha uzoq bo'lmagan “Gravelines” G'arbiy Yevropadagi eng yirik atom elektr stansiyasi hisoblanadi. U oltita 900 megavatt quvvatli reaktorga ega.



Dushanba kuni to'rtta reaktor sovutish nasoslariga meduzalar to'dasining tiqilib qolishi oqibatida o'chirilgan edi. Tezkor chora-tadbirlar natijasida kuni kecha birinchi reaktor faoliyati tiklandi.

SUN'IY INTELLEKT ALDADI

ChatGPT maslahatlariga ishongan AQShlik erkak ruhiy kasalliklar shifoxonasiga yotqizildi. Bu haqda Amerika kardiologiya assotsiatsiyasi manbasida maqola chop etildi.



Bemor sun'iy intellekt bergan tavsiyaga ko'rkona amal qilib, uch oy davomida osh tuzi o'miga internet do'kondan sotib olgan bromidni iste'mol qilgan. Oqibatda, zaharlanib, paranoya va gallyutsinatsiya belgilari bilan kasalxonaga tushgan.

TONGADA ZILZILA

Tinch okeanidagi Tonga orol-davlatida 5,6 balli zilzila sodir bo'ldi. Germaniya Geofan tadqiqot markazi (GEOFON) ma'lumotiga ko'ra, hozircha sunami xavfi haqida ogohlantirish berilmagan.



Zilzila mahalliy vaqt bilan soat 17:38 da, 10–25 kilometr chuqurlikda ro'y bergan.

Boshlanishi 1-sahifada.

Kaminaga yaqin bo'lgani bois tahlilni olmon tilidan o'g'irilgan asarlardan boshlasak. Toshkentda joylashgan Gyote institutida yosh tarjimonlar uchun seminarlar o'tkazish an'anaga aylangan.

2024-yil oxirlarida o'tkazilgan seminarada Hafiza Qo'chqorovaning yangi tarjimasi muhokama qilindi. Shveytsariyalik yozuvchi Peter Shtammning “Die sanfte Gleichgültigkeit der Welt” asarini tarjimon qizimiz “Loqayd dunyo” deb o'g'irgan. Ammo asar nomi “Dunyoning oyimsupurgi loqaydligi” degan ma'noni anglatadi. Muallif olmoncha “sanft” (epitet) sifatlovchi so'zini loqaydlik ot so'z turkumidan oldin aniqlovchi vazifasida qo'llab, bu so'zni shunchaki muloyimlik, yumshoqlik ma'nosida emas, balki dunyoni buzayotgan zararkunanda beparvolik, jamiyatni izdan chiqarayotgan muloyim loqaydlik sifatida qayd etib, insoniyatni hushyorlikka da'vat qilmoqchi bo'lganday, nazarimda. Asar nomi noto'g'ri tushunilgan, muallifning maqsadi anglanmagan va oqibatda go'zal sarlavha siyqa ma'no kasb etgan. Holbuki, mutarjimning dastlabki ishlaridan biri bo'lgan Jenni Erpenbekning “Heimsuchung” romani tarjimasida sarlavhadagi xatodan keyin bu ishga jiddiy qaray boshlaganini ko'rib, uning navbatdagi tarjimalarida muqobil so'zlar topayotganidan xursand bo'lgan edim. Jumladan, unga Elke Haydenrayx va Bernd Shryoderning “Alte Liebe” asarini “Azaliy ishq” deb go'zal tarjima qilganini eslatib, maqtaganman.

Ayrim mutaxassislarimiz maxsus lug'atlar bilan kam ishlayotganday tuyuladi. Aks holda Gyunter Grassning “Der Blechtrommel” romanini qanday qilib “Tunuka do'mbira” deb o'g'irish mumkin? Olmonlar hayvon terisi qoplangan nog'orasimon sozni Trommel deb aytaydi. Do'mbira esa turkiylarga xos qorni yog'ochdan yasalgan musiqa cholg'usidir. Aslida Gyunter Grassning mazkur asari sarlavhasi “Tunuka nog'ora” deb o'girilsa, to'g'riroq bo'lardi.



“Oy o'rtanar, ko'zlarida yosh, Ko'ksi dog'-u yuragi qiyma. Der: “Ey falak, men edim quyosh, Nega meni qilding tarjima?” Erkin VOHIDOV

“

”



Ayni paytda dunyoning ko'p mam-lakatlari olmonzabon modernist yozuvchi Frans Kafka hayoti va ijodiga qiziqish avj olmoqda. Uning qator asarlari rus va olmon tillari orqali o'zbekchaga o'g'irilmoqda. Yozuvchining “Das Schloss” asari avvalroq Vafo Fayzullo tomonidan ruschadan “Qal'a” nomi bilan tarjima qilinib, chop etilgan edi. Shu asarni olmonchadan o'g'irgan Shahnoza Quvonova “Qo'rg'on” deb atabdi. So'zboshi muallifi, akademik Akmal Saidov esa asarni “Saroy” deb atagan. Lug'atlarda “Das Schloss” so'zining qasr degan muqobili ham mavjud. Qay biri aslyimonand, degan savol tug'ilganda teskari tarjima metodi qo'l keladi. Bu usulga ko'ra qal'a – Burg, qo'rg'on – Festung. Olmoncha-o'zbekcha lug'atlarda esa “Das Schloss” goh saroy, goh qasr shaklida berilgan. Vafo Fayzullo aslyiat tilini bilmasligi mumkin, biroq Shahnoza Quvonova mutaxassis sifatida nega noto'g'ri tarjima qilgan? Uning xatosi – lug'at bilan ishlamaganida.

Hozirgi olmon tili lug'atlarida 800 mingdan 1 milliongacha so'z bor. Universitetni bitirgan mutaxassis nari borsa 2000tafaol, 3000ta passiv so'z boyligiga ega bo'lishi mumkin. Sinxron tarjimonlar esa shuning o'n barobaricha so'z boyligiga ega bo'lishi mumkin. Shundan lug'atsiz tarjimalarning qay holatda ekanligini tasavvur qilavering. Bu o'rinda faqat mutarjimning emas, balki ana shu tarjimalarni chop etgan noshirlarning ham loqaydligi ko'zga tashlanadi.

Tarjima nashrlarda boshqa qator jiddiy kamchiliklar ham ko'zga tashlanadiki, ular o'girma-larning umumiy sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Jumladan, bibliografik ma'lumotlar aslyiat tilida berilmayapti, asl matnni chop etgan chet el nashriyotidan maxsus ruxsatnoma – litsenziya olinmayapti, nashrga mas'ul taqrizchilarning ismi-sharifi kitoblarda bor-u, nashriyotlarda ularning asl taqriz-lari matni saqlanmagan. Bu esa xalqaro nashr normalari va mualliflik huquqining buzilishi hisoblanadi. Qolaversa, maxsus kengashi bo'lmagan nashriyotlar tarjimalarni chet tili mutaxassisining tahriri va taqrizidan o'tkazmasdan o'zboshimchalik bilan bosmoqda. Natijada, tarjima matnlarida muallifning individual uslubi va milliy o'ziga xosligiga jiddiy putur yetmoqda. Ulardan nega bunday qilasizlar, deb so'rasak, mas'ul muharrirga to'laydigan pulimiz yo'q, deyishadi. Axir, tarjimaning sifatini aynan ana shu mas'ul muharrir va uning tahriri hamda taqrizlari kafolatlaydi-ku!

Shu kabi jiddiy tashkiliy, nashriy kamchiliklar tufayli minglab milliy o'ziga xos so'zlar o'z qiyofasi va ma'nosini yo'qotmoqda. Jumladan, “yo'lbars” – shahzodaga (F.Vyurtlening “Babur der Tiger” asari tarjimasida), “shavla” – bo'tqa-ga, “palov” – shavlaga, “amir” – qiroлга aylanib qolmoqda. Mustabid tuzumdan qutulganimizga ko'p yillar o'tsa-da, tarjimonlar bizni yana “shchelkunchik” bilan “yong'oq cha-qish”ga o'rgatmoqchi bo'lishyapti (olmon yozuvchisi Amadey Hofman-ni “Nussknacker”, ya'ni “Yong'oq chaqqich” asarini ruschadan o'g'ir-gan tarjimon asar nomini “Shchel-kunchik”ligicha qoldirgan).

Meni o'ylantirayotgan boshqa bir masala ham bor: hozirgi o'zbek fani turli yo'nalishlar, ayniqsa, ijtimoiy sohalarida qanday yangi fikr va tadqiqotlar bilan jahon fanini boyitmoqda? Dissertatsiyalarda yangilik deb da'vo qilayotganimiz jahon miqyosida qay darajada

tan olinmoqda? O'zbek tarjima nazariyasi qanday nazariy kashfiyotlar bilan jahon tarjima nazariyasini boyitmoqda? Ana shu savollarga javob topishi mumkin bo'lgan asosiy omillardan biri bu – o'zbek fani yutuqlarini chet tillariga tarjima qilishdir.

Biz esa asosan chetdan o'g'irish bilan bandmiz. Bu eski qobiqlardan chiqishga o'zimizda jur'at topolmayotganimiz va buni turli bahona-yu sabablar bilan oqlayotganimiz oqibatidir. Bugun jahon tajribasida jiddiy rivojlanayotgan muhim tendensiya – ona tilidan chet tillariga bevosita tarjima qilish masalasiga ishonchsizlik bilan qarab, o'zimiz anglagan-angla-magan holda zamondan orqada qolyapmiz.

Tarjimonlarning hushyorligi pasa-yishida soha olimlarining ham “hissasi” bor. O'tgan vaqt davomida amalga oshirilgan tarjimalarni 100 foiz desak, bu ag'darmalarning taxminan 10 foizi ilmiy to'plamlarda tahlil va tanqid qilindi, xolos; juda kam qismi katta-kichik disser-tatsiyalarning tadqiqot obyekti, predmeti va materialiga aylandi. Shu o'rinda fidoyi olimlarimizni sanab o'tishni lozim topdik.

Bu masalada, ayniqsa, o'z vaqtida Jumaniyoz Sharipov, G'aybulla Salomov, Najmiddin Komilov g'ayrat ko'rsatishgan bo'lsa, ayni vaqtda ularning shogirdlari ko'p ibratli ishlarni amalga oshirishmoqda. Zohidjon Sodiqov va Hamidjon Xalilov kabi amaliy tarjimalar bilan shug'ullanayotgan ayni paytda ilmiy ish yoqlayotgan, qator mono-grafik tadqiqot va o'quv adabiyot-lari yaratayotgan hamkasblar ko'p emas.

Ta'kidlash joiz, bu sohada jiddiy masalalarni o'rta tashlayotgan, mavjud tarjima muammolariga yechimlar taklif qilayotgan Zuhridin Isomiddinov (“Tarjima va til”), Ergash Ochilov (“Tarjimashunoslikning nazariy masalalari”) va Odiljon Safarov (“Antik tarjima-yi tafakkurni o'rganish muammolari va ularning yechimlari”) kabi sohamizning peshqadam olimlari ko'pchilikka ibrat bo'lishmoqda. Boshqalar ham ulardan o'rnak olsa, tarjimachiligimiz sifati sezilarli darajada ko'tarilgan bo'lar edi. Zotan, nazariyotchilar amaliyotchilarga ko'makchi bo'lishi kerak.

Xurram RAHIMOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi Tarjimashunoslik va lug'atshunoslik ilmiy-amaliy markazi rahbari, professor

TAQDIMOT

Qurigan bir cho'pni qushday sayratding

Hamma laqqillasa bozor tilida,
Sen ko'ngil tilida biror jumla ayt...

Atrofga birrov razm solsangiz, bugun eshitadigan quloq topish amri maholdek. Balki bu “eshitish moslamalari” laqqilashlardan bezigandir. Ko'ngil tilida biror jumla eshitishni istar.

Katta oqin – suvni tinglamay qo'ygan odamlar, dillaridagi ko'milib ketgan iztiroblar, samimiy tuyg'ularni qanday ilg'asin?! Kechinmalar “mozoristoni”ga aylangan yurak, tabiat bilan tillashishni ham unutadi. Buyumlardek “baxtli yashash”ni boshlaydi. Shoining she'rlari, satrlari kiftidan tutsangiz, sizni go'zal bir olamga boshlab ketadi.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli shoir Eshqobil Shukurning “Oy yo'li” she'riy saylanmasi hamda “Boboso'z izidan” (to'ldirilgan qayta nashr) kitoblari chop etildi. Kitoblarni mutolaa qilar ekansiz, shoir Eshqobil Shukur bilan dildan suhbatlashasiz, go'yo.

Boshi yoriq bedana bilan ko'ksi yoriq shamol
O'zimga o'xsharkan endi o'ylasam.

Shoir tuyg'ularni, kechinmalarni “osmon”dan olib yozmaydi. Uning ko'ngil ko'kida borlari satrlarga to'kiladi. Ijod onlari o'zi bilan o'zi gaplashadi shoir. Bugun odamlar o'zaro ham, o'zlari ham suhbatlashmay qo'ydi. Lekin shoir har bir satrda, har bir so'zda o'zi bilan gaplashadi, tortishadi. Goh yutadi, goh yutqazadi. Poklanib boradi shu zayl. Sahifalar ortda qolgani sayin



sizning ham ozurda qalbingiz musaffolashib boradi. Endi unga hayotning mayda-chuyda g'avg'olari daxl qila olmaydi.

Yer sharining ustiga chiqib, chordona qurib o'tirib olasiz. Keyin tahlil qila boshlaysiz, o'timishni, bugunni va kelajakni. Makon va zamon chegarasidan chiqib ketasiz. Shoining she'rlari sizni opichlab koinotni kezib chiqadi, ko'ngil koinoti yanada kengishroq tuyula boshlaydi. Qaytg'ingiz kelmaydi, satrlarning orasiga, so'zlarning pinjiga berkingingiz keladi hayotning dolg'ali o'yinlaridan, o'ylaridan.

Keling, biroz ko'zgu qarshisida qad rostlang. O'zingizga nigoh tashlang: so'zlar bilan so'zlashing. “Boboso'z izidan” odimlang. U sizni ko'plab savollarga, so'zlarga ro'baro' qiladi.

Bir kecha-kunduzda necha so'z ishlatamiz? Va bu so'zlarning asl mazmunini, tub ma'nosini bilamizmi? Taniqli shoir Eshqobil Shukurning “Boboso'z izidan” kitobi bevosita so'zga, so'zki, xalqimiz tarixiga tomirdosh bo'lgan turkiy tillar oilasida xazinasini, jozibasini, rang-u harorati, qo'yingki, sharafi baland asl o'zbek so'zlariga bo'lgan katta muhabbati tufayli, ularni asrab qolishdek ezgu niyat samarasi o'laroq maydonga kelgan.

Muallifning qadimiy so'zlar tarixiga qilgan sayohatida unga yo'ldosh bo'lish siz aziz kitobxonga ham bahramandlik bag'ishlaydi.

“So'z bilan ishlash juda mashaqqatli, qaltis ish ekan. Lekin bu ishda shunday bir maroq borki, u har qanday qiyinchilikni zavvqa aylantirar ekan. Odam sevishti o'rganmaydi, sevgining o'zi keladi deyishadi-ku, lekin men so'zlarni sevishti o'rgandim. “Devonu lug'otit-turk”ning qalin o'monlarida, tom-tom lug'atlarining toyg'oq so'qmoqlarida, xalq tili va ustoz kitoblarning minglab chaqirimlarga cho'zilib ketgan yo'llarida yurdim”, deb yozadi muallif.

Qachongacha, o'ltinchi dunyoning mayda tashvishlari sizni mashg'ul qilib qo'yadi. “Oy yo'li”dan, “Boboso'z izidan” qolmang!

Ey, inson-a, inson-a, inson,
Ko'nglingda shunchalar darding bormidi...
Qurigan bir cho'pni qushday sayratding.

Zikrilla MUHAMMAD

14-avgust kuni Milliy matbuot markazida yozuvchi va tarjimon Raxshona Ahmedovaning yangi kitoblari bag'ishlangan taqdimot marosimi bo'lib o'tdi. Unda adiba ijodidagi ilk roman – “Tongotar” hamda koreys tilidan o'g'irilgan Shin Kyong Suk qalamiga mansub “Onamni asra” asari kitobxonlarga taqdim etildi.



AYOLGA QASIDA

Yangi romanda jamiyatni ichidan yemirguvchi illatlar – ilmsizlik, qo'rqoqlik, loqaydlik, riyo va o'tkinchi havaslar bandasiga aylanish orqali insoniy qiyofasini yo'qotayotgan olomon orasida pokligi va halolligini saqlab qolishga urinayotgan qahramonlar haqida so'z ketadi. Barcha voqealar Farog'at obrazi atrofida aylanadi. Adiba go'yo “o'zimizdagi jaholat yukini farzand-larimizga qoldirmaylik, ular ma'rifat quyoshiga talpinib o'ssin”, deb xitob qilayotganday.

Raxshona Ahmedovaning “Onamni asra” kitobini tarjima

qilishi ham tasodif emas. Avvalo, yozuvchining ijodi ayol va uning ichki olamini badiiy tasvirlash asosiga qurilgan. Qolaversa, o'zi ham bir muddat Janubiy Koreyada yashagani bois bo'alka va odamlarini yaqindan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Bu ikki asar bir-biridan uzoq yurtlarda yaratilgan bo'lsa-da, yuraklarimizni birlashtiruvchi umumiyy tuyg'u – inson qadr-qimmatiga haqiqat so'zlashi bilan e'tiborga molikdir.

Vasila HABIBULLAYEVA

HUQUQSIZ HUQUQSHUNOS QISMATI

Boshlanishi 1-sahifada.

Ilmi toliblarning boshini birlitirish hamda asosiy g'oyaga yo'naltirish maqsadida turkistonlik yoshlarning ma'naviy rahbari Usmonxon Eshonxo'jayev ilmiy to'garaklar va devoriy gazetalar tashkil etadi. G'ayratli yoshlar o'ta dolzarb mavzularda ilmiy ma'ruzalar qilar, sovetlar poytaxtida o'zbek xalqi madaniyati va qadriyatlarini targ'ib etardi. Ana shu qizg'in jarayon Muhammadjonning fikrini ochib, qo'lga qalam tutqazdi. U "Farg'ona", "Turkiston" va "Zarafshon" gazetalarida tahliliy maqolalari bilan faol qatnasha boshladi.

Shunday bir sharoitda "ko'mak"chi talabalar O'zbekistonda "sho'rolar shovinizmi"ga qarshi kurashish hamda rahbar kadrlarni mahalliy-lashtirish masalasini ilgari suradi. Stalin tomoni-dan demokratik erkinliklarning ta'qib etilishiga, diktatura va zo'ravonlikning tobora avj olib borayotganiga qarshi chiqadi. 1927-yil 7-noyabrda Moskva ko'chalarida aholining tinch namoyishi o'tkaziladi. Ular safida yurtdoshlarimiz ham bor edi. Har qanday muxolifatga murosasiz bo'lgan sovet hokimiyati ularni Stalin nomidagi Sharq mehnatkashlari kommunistik universiteti talabalari qo'li bilan tarqatib yuboradi. Ishtirokchilarni "trotskiychi-zinovevchi aksilinqilobiy guruh a'zolari" degan bo'hton bilan ta'qib etish boshlanadi.

Bu taloto'plar oqibatida Muhammadjon Mo'minovga universitet ma'muriyati tomonidan "hayf-san" beriladi. Faqat O'zbekiston hukumatining aralashuvi bilan u o'qishdan haydalmay qoladi, lekin stipendiya-dan mahrum etiladi. Iqtisodiy ahvoli tanglashgan talaba O'zbekiston XKS raisi Fayzulla Xo'jayevga yordam so'rab murojaat etadi. Birinchi rahbar Moskvaga borganida u bilan shaxsan uchrashadi va 100 so'm miqdorida pul beradi.

1928-yil so'ngida qahramonimiz "Mamlakat-niing boshqaruv tizimida prokuror nazorati" mavzusidagi diplom ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, universitetni qizil diplom bilan bitiradi. 1928-yil Samarqandga kelgach, O'zbekiston Oliy sudi kollegiyasi a'zosi etib tayinlanadi. Bu haqda "Yer yuzi" jurnalida "...Maskov dorulfununining huquq sho'basini 1927-yilda bitirib, diplom yozish uchun bir yil Maskovda qoldi. O'zbekistonga kelganidan keyin Toshkent okrug sudida birmuncha vaqt ishladi. Hozir o'rtoq Mo'minov O'zbekiston oliy sudining kollegiya a'zosi vazifasini bajarib turibdir", deb xabar beriladi. 1931-yilda M.Mo'minov O'zSSR Adliya xalq komissarligida aholiga yuridik yordam ko'rsatish va sud himoya bo'limining mudiri lavozimiga tayinlanadi.

Iqtidorli huquqshunos hayoti va faoliyatining "oltin davri" 1932–1935-yillarga to'g'ri keladi. Shu yillarda u Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tekshirish instituti direktori vazifasida faoliyat olib bordi. Shu

yerda "Sho'ro qurilishi ham huquq" jurnalini chop etishni yo'lga qo'ydi. Muhammadjon Mo'minovning sa'y-harakatlari bilan qisqa vaqtda ko'plab yuridik lug'atlar, darsliklar tayyorlanib, chop etildi. O'zi tarjimon, o'zi muallif, o'zi taqrizchi sifatida milliy huquq bazasini mustahkamlashga beqiyos hissa qo'shdi.

Qahramonimizning 1932-yilda nashr etilgan "Ha fronte теории государства и права" kitobi katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Mo'minov tashabbusi bilan tashkil etilgan institut bazasida keyinroq yuridik institut poydevori qo'yiladi.

Fidoiy huquqshunosning muvaffaqiyatlari barchani birday quvontirmasligi aniq edi. Sovetlar Moskvadagi namoyishni esdan chiqarmagan, o'ch olish uchun qulay fursat poylayotgan edi. "Qatag'on mashinasi"ning ishga tushishi ichki va tashqi dushmanlar uchun ayni muddao bo'ldi. 1935-yilda Muhammadjon ham "trotskiychilik"da ayblanib, partiya safidan o'chirildi va dars berish huquqidan mahrum etildi. Chorasiz qolgan olim o'zining aybsizligini isbotlay olmadi. Shundan so'ng Fayzulla Xo'jayev yordami bilan Farg'ona muzofotiga prokuror etib tayinlanadi. Bu yerda ham u ishonchsizlik va tazyiqlar ostida yashaydi va oqibatda Toshkentga qaytishga majbur bo'ladi...

1937-yil 28-mart kuni Muhammadjon Mo'minov "Milliy ittihod" tashkiloti a'zosi, trotsko-zinovevchilar namoyishining ishtirokchisi hamda O'zbekiston kompartiyasi birinchi kotibi Akmal Ikromovga qilingan suiqasdda sheriklikda ayblanadi. Ertasi kuni uning xonadonida tintuv o'tkazilib, o'zi hibsga olinadi. Turmush o'rtog'i Dilorom Yusupova ikki farzandi bilan chorasiz qoladi.

O'sha yilning 10-aprel kuni tergovchi Agabekov yuqorida keltirilgan ayblovlarni takrorlagan holda hech bir qo'shimcha va dalillarsiz O'zSSR JKning 67-moddasini qo'llab qaror chiqaradi. Mo'minov ishida yagona so'roq bayonnomasi mavjud. Bu hujjat o'sha paytda bir xil qolipdan chiqqan boshqa bayonnomalar kabi bo'hton va kurakda turmaydigan ayblovlar bilan to'lib-toshgan. Muhammadjon bu bayonnomaga jismoniy va ruhiy qiynoqlardan aql-dan ozish darajasiga yetgach yoki oilasi taqdirini o'ylab imzo qo'ygani shubhasiz. Qolaversa, u Buxoro okrugi IIXKda 3-bo'lim boshlig'i yordamchisi vazifasida ishlayotgan ukasi Inomjon Mo'minovning kelajagini bar-bod qilmaslik uchun ham shunday yo'l tutgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shu bilan birga, o'zi imzolagan qog'ozlarning qanday mudhish oqibatlariga olib kelishi mumkinligini Mo'minov yurist sifatida juda yaxshi anglar edi.

Safdoshlari bilan bo'lgan yuzlashtirishlar ishning yaxshilikka o'zgarishiga hech qanday ta'sir o'tkaza olmadi. Qiynoq va azoblardan charchagan, umidsizlikka tushgan Mo'minov 1937-yil 2-oktyabr

va 1937-yil 18-dekabr sanalari bilan yozgan bildirishnomalarida o'zining "ayblari"ni tan oladi.

M.Mo'minovning ayblovlar bayonnomasi 1937-yil 20-dekabr kuni O'zSSR ichki ishlar xalq komissari Leonov tomonidan imzolandi. Unda avval qo'yilgan, ammo tergov jarayonida birortasi o'z isbotini topmagan ayblovlar takrorlangan. Faqat bu gal O'zSSR JKning 64-, 67-, 58-moddalari qo'llanadi. Xuddi shu hukm oradan qariyb bir yil o'tib, 1938-yil 3-oktyabr kuni SSSR bosh prokurorining ismi-sharifi qayd etilmagan o'rinbosari tomonidan tasdiqlandi. Uning ishi 1938-yil 4-oktyabr kuni O'zbekiston IIXK qoshidagi mash'um "Uchlik" tomonidan 17:45 dan 17:55 gacha ko'rib chiqildi va sud otuv hukmini belgiladi. Hukm shu kunning o'zida ijro etildi.

Afsuski, uning ukasi Inomjon Mo'minov ham uzoq davom etgan dahshatli so'roqlardan so'ng 1938-yil 9-oktyabr kuni otib tashlanadi.

Quruq tuhmat tufayli birato'la ikki farzandidan ayrilgan Mo'min Inog'omxo'jayev tinimsiz ruhiy azoblar tufayli butunlay so'qir bo'lib qoladi. U 1939-yili sovet mas'ul idoralarga yozgan arizalarida farzandlarining aybsiz ekanligini qayta-qayta ta'kidlab, ularni ozod qilishlarini yulvorib so'raydi. Biroq ushbu iltimosnomalarga hech qanday javob qaytarilmaydi. Farzand dog'ini ko'tara olmagan sho'rlik ota tez orada vafot etadi...

1955-yil 27-may kuni M.Mo'minovning 75 yoshli onasi Tojixon Inog'omxo'jayevaning sobiq Ittifoq Oliy Soveti raisi nomiga, 24-noyabr kuni Dilorom Yusupovaning mamlakat prokurori nomiga yozgan arizalari asosida M.Mo'minovning ishi qayta ko'rib chiqishga topshiriladi. 1956-yil 5-aprelda qayta so'roqqa chaqirilgan Dilorom Yusupova erining Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tekshirish instituti direktori bo'lgan vaqtda O'zbekistonda oliy ma'lumotli yuristlar tayyorlash maktabini yuzaga keltirishdagi olijanob xizmatlarini birma-bir bayon qiladi. Ayni paytda uning boshiga tushgan qiyinchiliklar va ba'zi baxil kimsalarning tuhmatlari bilan bir necha marotaba og'ir holatlarga tushib qolganini ham eslaydi. Ayniqsa, tergovchi Agabekovning noqonuniy xatti-harakatlarini, tergovda o'ziga kerakli ma'lumotni qo'rqitish yo'li bilan olganini bayon qiladi. Ayblanuvchining xotini sifatida o'zi ham 1937-yildan 1939-yil aprelgacha turmada saqlanganini ta'kidlaydi.

1956-yil 2-iyunda so'roqqa chaqirilgan SAGU yuridik fakulteti dekani Xadicha Sulaymonova shunday ko'rsatma beradi: "...Men 1932–1935-yillar Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tekshirish institutida o'qigan davrimda, u kishi direktor edilar. Uning ma'ruzalarini hamma aspirant va talabalar sevib tinglashar edi. U o'z vaqtda yagona oliy ma'lumotli o'zbek yuristi edi. U o'ta bilimdon inson edi. Tengsiz iqtidor sohibining hayoti oson kechmadi. Uning g'ayrati, ilmi har



doim boshqalarning hasadiga sabab bo'laverar edi va qisqa davrda uni 6 marta partiya-dan haydadilar. M.Mo'minov qanday qiyin sharoitda mehnat qilmasin, o'zidan so'ng katta yuristlar armiyasini yetkazib bera oldi, butun boshli o'zbek huquqshunoslik maktabini qoldirdi".

Qayta so'roq jarayonida Muhammadjon Mo'minov hech bir asossiz qatag'on qilingani ochiq-oydin ayon bo'ldi. 1957-yil 23-yanvar kuni sobiq Ittifoq Oliy sudi harbiy kollegiyasi uni oqlab qaror chiqaradi.


Muhammadjon Mo'minovning o'g'li, matematika fanlari doktori Marat Mo'minov uzoq yillar ta'lim tizimida samarali mehnat qiladi va 1998-yili 68 yoshida vafot etadi. Biroq uning qizi Surayyoning umri qisqa ekan, boyoqish meditsina institutini bitirish arafasida avtohalokatga uchrab nobud bo'ladi.

Shu o'rinda M.Mo'minovning sadoqatli umr yo'ldoshi, 25 yoshida yolg'iz qolgan bo'lsa-da, og'ir damlarda ham ayollik sha'niga dog' tushirmasdan, umrining oxirigacha turmush o'rtog'ining xotirasini e'zozlab yashagan Dilorom Yusupova (1911–1981) haqida ham to'xtalib o'tishimiz lozim.

Dilorom Yusupova "Yosh buxoroliklar" tashkilotining a'zosi Sobirjon Yusupov xonadonida dunyoga keladi. Taraqqiyparvar ota unga Dinara deb ism qo'yadi. S.Yusupov mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakat ishtirokchisi sifatida bir umr ta'qibda yashaydi va hayoti fojiali yakun topadi. Natijada qizaloq onasi bilan birgalikda Toshkentga ko'chib kelishga majbur bo'ladi. 1922-yili Dinara Buxoro Xalq Respublikasi tomonidan Moskvaga o'qishga yuboriladi. 1926-yili Toshkentga qaytib, SAGUning sud bo'limiga o'qishga kiradi va uch yildan so'ng Dilorom Yusupova nomiga diplom oladi. U universitet yo'llanmasi bilan Samarqandda ishlab yurganida Muhammadjon Mo'minov bilan tanishib, unga turmushga chiqadi.

Yosh oila 1931-yili Toshkentga ko'chib keladi. Dilorom Yusupova Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tekshirish institutining aspirantura bo'limiga o'qishga kiradi. 1934-yil dekabr oyida bitirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgach, yo'llanma bilan O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasiga ishga yuboriladi. Turmush o'rtog'i oqlangach, Dilorom Yusupova umrining oxirigacha O'zbekiston transport prokuraturasida mehnat qiladi.

Bahrom IRZAYEV



(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Shoqobil Kamolov – 1885-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. Savdogarlar komiteti raisi bo'lgan.

1930-yil 28-dekabrda "Milliy istiqlol" faoli sifatida tashkilotning pul mablag'larini Toshkentga yetkazganlikda, boshmachilardan foydalanish to'g'risidagi masala muhokamasida ishtirok etganlikda ayblanib qamoqqa olingan. OGP Uning 1935-yil 25-apreldagi kollegiyasi tomonidan RSFSR Jinoyat Kodeksining 58-moddasi 4-, 11-bandiga ko'ra 10 yil muddatga konslager qamog'iga hukm etilgan.

Sodiq Abdustartov – 1884-yilda tug'ilgan. O'zbekiston partiya nashriyoti mudiri vazifasida ishlagan. O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64- va 67-moddalariga binoan Toshkentda ko'tarilgan qurolli qo'zg'olonni tayyorlashda, "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zosi sifatida sovetlarga qarshi faoliyat olib borishda va O'zbekistonni SSSRdan ajratib olish maqsadida targ'ibot yuritishda ayblanadi. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi 1938-yil 4-oktyabrda otuvga hukm etadi. O'tgan asrning 50-yillarida reabilitatsiya qilinadi.

Rasul Nosirov – 1905-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek, ma'lumoti o'rta. Dastlab "Yangi Farg'ona" tuman gazetasi muharriri vazifasida ijod qiladi. Keyinroq Qo'qon shahri madaniyat bo'limi mudiri lavozimiga o'tkaziladi.

Matbuotdagi chiqishlari, madaniy tadbirlari mohiyatida milliy ozodlik harakati g'oyalari yashiringanini payqagan sovetlar "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zosi, o'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish vazifasini qo'yg'an jinoyatchi sifatida unga nisbatan 1938-yil 8-oktyabrda o'lim jazosini tayinlaydi. 1957-yil 22-noyabrda oqlanadi.

Sobir Mirzajonov – 1903-yili Naman-gan shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. Hibsga olinganga qadar Qo'qon shahar partiya komitetining kotibi bo'lgan.

1937-yil 27-sentyabrda "Milliy istiqlol" tashkilotining a'zosi sifatida qamoqqa olinadi. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 4-oktyabr-dagi sayov sessiyasida 52 nafar o'zbekistonlik otuvga hukm etilgan. Ushbu mash'um ro'yxatning 15-qatorida "Mirzajonov Sobir" ismi-sharifi yozilgan edi.

Hamid Aglyamov – 1888-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Malakali iqtisodchi, madaniy-ommaviy ishlar bo'yicha muta-saddi sifatida nom chiqargan. 1916-yilda keyinchalik "Ittihad va taraqqiy" yoki "Milliy ittihod" nomini olgan "Turon" madaniy-ma'rifiy jamiyat a'zoligiga kiradi. U doimiy ravishda milliy ozodlik harakatini qo'llab-quvvatlagan. Germaniya – Fransiya, Germaniya – SSSR, Yaponiya – SSSR urushi yuz berayotgan bir paytda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti instruktori lavozimida ishlagan.

1937-yil 14-avgustda O'zSSR Jinoyat Kodeksining 66-modda 1- va 6-bandi bilan ayblanib qamoqqa olingan, "Uchlik" qarori bilan eng oliy jazo berilgan. 1956-yil 27-sentyabrda reabilitatsiya qilingan.

Isom Alaudinov – 1908-yili Buxoro shahrida tug'ilgan, o'zbek. 1922-yildan 1926-yilgacha Germaniyada o'qigan. O'zbekistonga qaytgach, injener-to'quvchi kasbi bo'yicha ishlaydi. Oxirgi ish joyi – Toshkent tekstil kombinati. O'quv ishlab chiqarish o'qituvchisi bo'lib xizmat qilgan.

1938-yil 8-oktyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayov sessiyasida otuvga hukm etilgan.

Gumer Jdanov – 1897-yili tug'ilgan, millati tatar. O'rta ma'lumotli, oilali. Kattaqo'rg'on tuman partiya komitetining 2-kotibi bo'lib xizmat qilgan. Keyinroq Toshkent shahridagi "O'zbekiston" nashriyotida faoliyatini davom ettirgan.

"Milliy istiqlol" tashkiloti safida bo'lganlikda va uning topshirig'i bilan odam to'plash bilan shug'ullanganlikda ayblanib, 1938-yil 28-fevralda qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 15-oktyabrda bo'lib o'tgan sessiyasida o'limga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor


Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Diilshodbek HOMIDOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
(Davomi kelgusi sonda).

YANGI NASHR

“TURKISTON DAHOSI”NING CHIN BAHOSI

Yaqinda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan jadidshunos olim Halim Saidovning "Turkiston dahosi" kitobi nashrdan chiqarildi. Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan bosilgan ushbu kitobdan adabiy-ilmiy maqolalar o'rin olgan.



Halim Saidov jadidlik harakati, o'zbek jadid adabiyoti va publitsistikasi, xususan, Behbudiy adabiy shaxsiyatining xolis va bilimdon tadqiqotchisidir. Uning yozganlarini erinmasdan sinchiklab o'qish kerak. Chunki bu halim olim maqolalarini shunchaki yozmaydi. Maqola negizida muallifning o'z mustaqil qarashi bo'ladi. Bu qarash va ifoda ko'pincha boshqa jadidshunoslar fikridan farq qiladi ham. Aslida Halim Saidovning yozish uslubini, maqolalarining ichki strukturasi, o'ziga xos xulosalarining o'zi maxsus tadqiqotlarga mavzu bo'la oladi.

"Turkiston dahosi" – jiddiy kitob. Bu – Behbudiy hayoti va ijodi qariyb qir-q yildan beri xayolini egallab yurgan olimning kitobi. Istiqlo-l yillarida Mahmudxo'ja Behbudiy to'g'risida birinchilardan bo'lib ilmiy tadqiqot olib borib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan

ham shu yigit edi. Ko'p davr-larda Mahmudxo'ja Behbudiy mavzusi o'rtaga chiqqudek bo'lsa, birinchi navbatda Halim Saidov nomi, maqolalari, xizmatlari xayolinga keladi. Bir necha o'n yillar davomida ayni shaxsiyat, uning yozganlari tahlili bilan shug'ullangan bu mutaxassis har jihatdan Behbudiy fenomeni xususida kitob ta'lif etishga haqlidir. Dissertatsiyasidan tashqari Halim Saidovning davriy matbuotda bu mavzuda bir qancha jiddiy maqolalar e'lon etganini, hatto bahs-munozaralar ko'tarilgan pallada bilimdon mutaxassis sifatida aralashib, jo'yali fikrlar aytganini ham bilaman.

Tabiiyki, bu izlanish pallasida Behbudiy nashr etgan "Samarqand" gazetasi bilan "Oyina" jurnalining mazmun-mundarijasini har jihatdan puxta o'rgandi. Kitobdagi har ikki vaqtli matbuot nashriga tegishli "Samarqand" – jadidlar g'oyasining targ'ibotchisi" hamda "Jurnallarning eng birinchisi va yaxshisi..." deb nomlangan alohida ikki maqola shu izlanishlar hosilasidir.

Halim Saidovning jadidlar publitsistikasi, o'zbek dramasi-niing ibtidosi, jadid hikoyasi to'g'risida yozganlari ham o'rinli. "XX asr boshlarida yosh adiblarni munosib tarbiyalab, ularning qo'lli-dagi qalamni charxlash, adabiy asarlar yaratib, ular orqali o'zlikni anglashga va oqibat xalqni ma'rif-at, ma'rif-at vositasida esa hurriyatga chorlash jadidlarning ezgu orzusi edi". Aynan shu missiya, ya'ni adiblar yetishtirish, ma'rif-at tarqatish va nihoyat hurriyatga erishmoq orzusining konseptual negizini Behbudiydan topamiz. To'g'risi, bunday fikrlarni yozish uchun, albatta, o'sha murakkab davr adabiy, ijtimoiy, ilmiy manbalarini tekshirib, ularni fikran bir tizimga solmoq kerak.

Halim Saidov kitobida jadidlikka doir juda ko'p masala muhokama qilinadi. Behbudiy va uning tegrasidagi shaxsiyatlar faoliyatiga

ham diqqat qaratiladi. Jadidlar-niing jiddiy-hayotiy g'oyai a'moli bo'lgan ozodlik, istiqlol tushuncha-lari, xususan, Turkiston muxtoriyati qismati uchun "Yashasun, Turkiston muxtoriyati!" nomda alohida sahifa ajratiladi.

Birinchi manbalarni, o'zbek mumtoz yozuvida bosilgan vaqtli matbuotdagi maqolalarni, xabar-larni, adabiy asarlarni o'qish, anglash va uqish – bu o'z-o'zidan bo'ladigan ish emas. Arabiy imloda harf tanish bilan barobar sabr, qunt va eng muhimi, tamiz lozim. Tamiz degani bilim, fahm-farosat va analizga to'g'ri keladi. O'zbek mumtoz yozuvida bosilgan "Samarqand" bilan "Oyina"dan tashqari, Behbudiyning yozganlarini "Tarjimon", "TVG", "Tuijor", "Ulfaat" bilan "Hurriyat"dan ham izlamoq lozim. Olim ana shunday izlanishdan erinmadi. U o'zidan oldin sarg'aygan sahifalar changini yutib, qimmatli adabiy manbalarni tabdil qilgan olimlar xizmatini ham unutmaydi. Bu ilmda adolat va xolislik tamoyili demakdir. Halim Saidov inson va olim sifatida aynan shu fazilati bilan ham yangi toifadagi yosh-u qari jadidchilar uchun namuna bo'ladi, deb o'yladim.

Jadidlardan ibrat olishning qiymati xususida kitobning

Bahodir KARIM,
professor



Boshlanishi 1-sahifada.

DAVLAT RAHBARI BILAN UCHRASHUV

Hech esimdan chiqmaydi, o'shanda Prezidentimiz men haqimda eshitganlarini ta'kidlab, doim olg'a intilishimni maslahat berdilar. Shu zahoti nutq so'zlashga taklif etildim – bu har qanday insonni hayajonga solib qo'yadigan vaziyat edi, chunki davlat rahbari oldida gapirish mas'uliyati katta.

Ayni lahzada yana bir haqiqatni angladim: Prezidentimiz yoshlar hayotiga cheksiz e'tibor va mehr bilan qaraydilar. Ayniqsa, qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'limi va rahbarlik salohiyatini oshirish masalasini doim kun tartibida ushlaydilar. O'sha kuni minbarda aytgan so'zlari hanuz yodimda: "Agar biz qizlarni o'qitsak, butun jamiyatni o'qitgan bo'lamiz".

Shu nutqlaridan ilhom olib, kelajakda yurtimizda yetakchi rahbar ayollardan biri bo'lishni maqsad qildim. Chunki rahbar ayollar soni dunyoda ham, yurtimizda ham kam. Prezidentimiz bergan ishonchni oqlash uchun bor kuch-g'ayratim va bilimimni safarbar qilaman.

IZLANISHLAR HAMDA IMKONIYATLAR

Yoshligimdan texnologiya va IT sohasiga qiziqqanman. Dadajonim ham shu sohada faoliyat yuritadi. Olti yoshimda birinchi kompyuterimni sovg'a qilishgani qiziqishimni yanada kuchaytirdi. Shu bilan birga, chet tillarini ham faol o'rgandim.

15 yoshimda Amerikaning TechGirls xalqaro dasturiga tanlab olindim. Bu dasturda dunyo bo'ylab 36 mamlakatdan to'rt nafar qiz tanlanadi va men O'zbekistondan, shularning biri bo'ldim. Virjiniya shtatidagi "Virginia Tech University"da uch oylik yozgi maktabda tahsil olib, molekulyar modelling va dasturlash bo'yicha ilk tajribalar-imni boyitdim.

Shundan so'ng AQShda dasturchi va texnologlar o'rtasida o'tkaziladigan turli musobaqalarida ishtirok etdim. Jumladan, "CyberStart America" dasturlash va kiberxavfsizlik bo'yicha musobaqada yaxshi natijaga erishdim. Shu sabab, kiberxavfsizlik sohasiga qiziqishim yanada ortdi. Hozir xalqaro "Westminster University"da davlat granti asosida tahsil olayman va axborot tizimlari sohasida izlanishlarimni davom ettiryapman.

KIBERXAVFSIZLIK VA AMALIY ISHLAR

O'zbekistonda kiberxavfsizlikdagi eng muhim masalalardan biri – telegramda tarqalgan APK-fayllari orqali bank hisoblari va plastik kartalardan noqonuniy ravishda pul yechib olish holatlaridir.

TILBILIM



QADIMDA ITNI KIM BOQQAN?

Itlarni o'rganish, urchitish, oziqlantirish, saqlash, qo'riqlash, qidiruv, bojxona, chegara va boshqa xizmatlarda foydalanish uchun maxsus ko'nikmalarga o'rgatish bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislariga nisbatan yurtimizda XX asr boshidan buyon kinolog so'zi qo'llaniladi. Bunga rus ofitserlarining ovchi itlarni saqlash va ko'paytirishga oid klublari faoliyati sabab bo'lgan ekan.

Ammo ungacha mintaqada it boquvchilar bo'lmaganmi? Hukmdorlar va aslzodalarning zotdor ko'ppaklarini kim parvarish qilgan? Chorsuning shundoq biqinida joylashgan Sag'bon mahallasi nomi ham "sakbon", ya'ni "it boquvchi" ma'nosini beradi, degan qarashlar bor. Lug'atlarni ko'zdan kechirish jarayonida "itarchi", "itarchi" shaklida uchraydigan "itorchi" so'ziga duch keldim.

Gulxaniyning "Zarbulmasal"ida Boyo'g'li tilidan "It qilganni itorchi qilmas", degan maqol yangraydi. Itorchi kimligiga "Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati" (J.Lapasov)-ning 92-sahifasida "it boquvchi", "Mumtoz adabiyot manbalari lug'ati" (V.Rahmonov)ning 166-sa-

hifasida "itboqar, yugurdak, xizmatkor" deb ta'rif berilgan.

Shuningdek, "itarji" so'zi Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarida urug' nomi qatorida sanab o'tilgan. Yuridik fanlar doktori, professor Ziyodulla Muqimov "Shayboniylar davlati va huquqi" nomli tadqiqotida "itarchi"ning asl shakli "o'tarchi" bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Samarqand viloyati Ixtixon tumanida O'tarchi, Tjikistonning Xo'jand viloyati G'onchi tumanida Itorchi nomli qishloqlar bor.

Nomshunos olim Mo'min Turdibekovning "Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarixiy-lingvistik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida itorchi urug'i yaloviga it tasviri tushirilganini qayd etgan. Demak, itorchi urug'i vakillari itlarning xatti-harakatlari, seleksiyasi, ularni urchitish, oziqlantirish, saqlash, o'rgatish bilan shug'ullanganlar. Ov, qo'riqlash, qidiruv kabi jarayonlarda foydalanilgan.

Shundan kelib chiqib, itlarni parvarishlash va ularni biror faoliyatga o'rgatish bilan shug'ullanuvchi shaxsga o'zbekcha "itorchi" so'zini qo'llashga to'la asos bor.

Dostonbek SHARIPOV

KUCH – ILMDA



Shu sababli men O'zbekistondagi Kiberxavfsizlik markazi bilan hamkorlikda mamlakatdagi kibertahdidlarni tahlil qilish va ularga qarshi innovatsion choralar ishlab chiqishda faol qatnashyapman. Shuningdek, "Cyber University" bilan birgalikda axborot xavfsizligi bo'yicha kurslar va treninglar tashkil qilib, yoshlarning bu sohadagi bilim va malakasini oshirishga yordam beryapman. Raqamlashtirish vazirligi bilan hamkorlikda esa milliy kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish va kiberigiyena dasturlarini joriy etish bo'yicha loyihalarda ishtirok etyapman.

Joriy davrda O'zbekistonda milliy kiberxavfsizlik terma jamoasi shakllantirilmogda. Bu jarayon mentorlik dasturlarini ham o'z ichiga oladi va bir necha oy davom etadi. Maqsadimiz – mamlakatda kiberxavfsizlik mutaxassislari sonini sezilarli darajada oshirish. Oktyabr oyida Toshkentda bo'lib o'tadigan xalqaro CTF (Capture The Flag) musobaqasida ham ushbu terma jamoa bilan ishtirok etish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, kiberigiyena bo'yicha LMS (Learning Management System) o'quv dasturini ishlab chiqyapmiz. Bu dastur bog'cha, maktab va universitetlarda joriy qilinsa, xalqimizni mavjud kibertahdidlardan himoya qilish imkoni yaratiladi.

Kiberxavfsizlik – bugungi dunyoning mustahkam "qalqoni". Ushbu sohadagi faoliyat orqali nafaqat shaxsiy bilimimni mustahkamlayapman, balki Vatanimni zamonaviy tahdidlardan himoya qilishga hissa qo'shyapman.

IELTS 9.0 BALL

20 yoshimda IELTS imtihonida 9.0 ball oldim. Bu ko'pchilik uchun yetib bo'lmay cho'qqi, men uchun esa real natija. Buning ortida katta mehnat, qat'iy intizom va kuchli iroda yotadi.

Aslida, avvalroq – 14 yoshimda birinchi til sertifikatimni olganman va 7 ballga erishganman. O'shandan beri turli davlatlarga bordim, Amerikada tahsil oldim va xalqaro "Westminster University"ga kirish uchun talab qilingan 8 ballga erishdim.

Universitetdan tashqari vaqtlarda bilimlarimni yoshlar bilan bo'lishib, IELTS instruktorligi bilan shug'ullandim. Maqsadim – ayollar ham eng yuqori natijalarga erishishi mumkinligini isbotlash edi. Bir necha oylik tayyorgarlikdan so'ng maksimal 9 ballga erishdim va hozir O'zbekistondagi eng yosh "nayer"lardan biriman, soham bo'yicha ayollar orasida respublikada uchinchi o'rinni egalladim ("Niner" – so'zi, xuddi maktabda "besh"chi degandek, IELTSdagi "to'qqiz"chi ma'nosida ishlatiladi).

Mashhura ALIMARDON
tayyorladi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Qizlarimiz o'qisin!

O'zbek hamjamiyatida ayollarning ko'pchiligi qizini o'qitish istagida ekanini aytadi. Biroq ular hamisha so'zini quyidagicha davom ettiradi:

– Qiz bola o'qisa yaxshi-da. Zamoni ko'ryapsiz-ku. Ertaga erini qo'lga qarab qolmasin, deyman. O'zini uddalasin, xarajatlarni bemaol o'zi qoplay oladigan bo'lsin, deb niyat qilaman.

Shuningdek, kelin olish rejasidagi ayollar ham o'qimishli qiz qidirayotganini aytishadi. Ularning so'zi ham xuddi yuqoridagi alfozda davom etadi:

– Paypoqqayam, pampersgayam o'g'limgan pul so'rayvermaydi, deyman-da. O'qimishli qiz o'zini o'zi uddalaydi-da...

Bu so'zlar va jamiyatimiz ahvoli "Amallar niyatga bog'liq" ekanligini yana bir bor tasdiq etayotgandek...

Qayerga qarama, "o'zini uddalayotgan" ayolga ko'zing tushadi. Biri bozorda savdo qilsa, boshqasi mardikorlikka chiqadi. Aksariyatimiz o'qimishli ayollarga ham oddiy ishchi kuchiday qarab, ularga ham mardikorlik taqdirini ep ko'ramiz chog'i. Nahotki, odamlar o'z jigarbandi-qiziga shunday yukni ravo ko'rsa. Axir, ayol uchun o'zini o'zi uddalash naqadar og'irligini bilmaymizmi?!

O'zini o'zi uddalayotgan ayollar bilan yaqinroqdan tanishib, dardiga quloq tutib ko'ring. Yuzi kulsada, ko'zlari kulmaydi. Labi tabassum qilsada, chehrasi g'amgin. Qizingizni o'qitmang, demayman. O'qiting, albatta, o'qiting! Faqat dunyoga teran nazar sola olishi uchun o'qiting!

Turmushdagi har xil holatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishni o'rganishi uchun o'qiting!

Farzandlariga to'g'ri tarbiya bera olishi uchun o'qiting!

Har xil holatlarda turmush o'rtog'iga yaxshi maslahatchi bo'la olishi uchun, halo-haromning farqiga borishi uchun o'qiting!

Kelajakda farzandlari, onam o'qigan ziyoli ayol deb o'zlari ham o'qishga intilishlari uchun o'qiting!

Qolaversa, ilmi o'sib jamiyat rivojiga munosib hissa qo'sha olishi uchun o'qiting! Faqat o'zini uddalashi uchun emas!

O'zini uddalab yashashni hech bir ayolning boshiga solmasin. Uni otasi uddalasin, eri ta'minotini qilsin, keksayganida bolalari ardog'ida bo'lsin.

Aziza CHINPULATOVA,
Facebook

TANLOV

"Jadid" gazetasi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda "Dolzab 90 kun" loyihasi doirasida maktab o'quvchilari orasida Vatanga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy qadriyat va an'analimizga hurmat tuyg'ulari tarannum etilgan, shuningdek, ma'rifatparvar jadidlarning ibratli faoliyatini mustaqil tahlil va talqin qilishga bag'ishlangan

"JADID BOBOMGA MAKTUB"

ijodiy insho tanlovi e'lon qilingan edi. E'tiborli jihati, ushbu tanlov yurtimizdagi juda ko'plab maktab o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Joriy yil 14-avgustga qadar tahririyatimizga 34 mingga yaqin insholar kelib tushgani ham shundan dalolatdir. Ayni paytda taniqli ijodkor va o'qituvchilardan iborat nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan diqqat bilan o'rganilmoqda. Mustaqillik bayrami arafasida tanlov g'oliblari aniqlanib, belgilangan tartibda taqdirlanadi.

Quyida tahririyatimizga yo'llangan insholarning hududlar kesimida taqsimoti bilan tanishing:

Viloyat nomi	Insho topshirganlar soni	Buxoro	1 016
Farg'ona	17 448	Qashqadaryo	865
Navoiy	2 760	Surxondaryo	660
Namangan	2 722	Xorazm	641
Samarqand	2 215	Toshkent viloyati	637
Toshkent shahri	1 521	Jizzax	447
Andijon	1 062	Qoraqalpog'iston Respublikasi	417
Sirdaryo	1 111	Umumiy soni:	33 522



Jadid

adabiy, badiiy va ijtimoiy fanlarning gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLILAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 100

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 447

Lotin yozuvida – 11 653

Media kuzatuvchilar – 88 321

Buyurtma: G – 840.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 19:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz